



KOMPYUTER

GRAFIKASI VA DIZAYN

O'quv qo'llanma

X.X. Muratov

J.M. Tadjiyeva

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

X. X. Muratov, F. M. Tadjiyeva

KOMPYUTER GRAFIKASI VA DIZAYN

(o'quv qo'llanma)



CHIRCHIQ-2023

UO'K 744;004.92;378

KBK 85.15(5Уз6)

M-87

X.X. Muratov, F.M. Tadjiyeva / Kompyuter grafikasi va dizayn /
– o'quv qo'llanma / Toshkent.: «Yangi chirchiq prints», 2023 – 112 b.

Mualliflar:

Muratov Xusan Xolmuratovich,

Tadjiyeva Feruza Muxtarovna.

Mas'ul muharrir:

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Tasviriy san'at va dizayn kafedrasи mudiri, dotsent, O'zbekiston Badiiy Akademiyasi ijodkorlar uyushmasи a'zosi X.E.Sultanov.

Taqrizchilar:

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti Tasviriy san'at kafedrasи dotsent, p.f.n. **N.H.Tolipov**

Chirchiq davlat peagogika universiteti Tasviriy san'at kafedrasи professor, p.f.n. O'zbekiston Badiiy Akademiyasi ijodkorlar uyushmasи a'zosi

B.B. Baymetov.

ISBN 978-9910-751-23-3



Annotatsiya

Mazkur o'quv qo'llanma 70111201-Tasviriy san'at va amaliy bezak san'ati ta'lif yo'naliishi magistratura bosqichi uchun mo'ljallangan bo'lib, bugungi kun talablarini hisobga olingan holda xorij adabiyotlari asosida yaratildi.

O'quv metodik qo'llanma magistrlarni "Kompyuter grafikasi va dizayn" fanining nazariy hamda amaliy asoslari bilan chuqur tanishtiradi. Qo'llanma Kompyuter grafikasida ishlsh, zamonviy grafik dizaynlar yaratishdagi kompozitsiya qonunlari va qoidalarini chuqur o'rganishni ko'zda tutadi.

Аннотация

Настоящее учебно-методическое пособие 70111201-Изобразительное искусство и декоративно-прикладное искусство предназначено для уровня магистра, и создано на основе зарубежной литературы с учетом требований сегодняшнего дня.

Учебно-методическое пособие углубленно знакомит мастеров с теоретическими и практическими основами науки «Компьютерная графика и дизайн». Пособие предусматривает углубленное изучение композиционных законов и правил работы в компьютерной графике, создания современных графических дизайнов.

Annotation

This educational methodical guide 70111201-Fine art and applied decorative art is intended for the master's level, and was created based on foreign literature, taking into account today's requirements.

The educational methodical manual introduces the masters in depth to the theoretical and practical foundations of the science of "Computer graphics and design". The manual provides an in-depth study of composition laws and rules for working in computer graphics, creating modern graphic designs.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 29-sentyabrdagi 438-sonli buyrug'iiga asosan o'quv qo'llanma sifatida nashrga tavsiya etilgan.

MUNDARIJA

Kirish	1
1. “Kompyuter grafikasi va dizayn” fanining maqsad va vazifalari	2
2. Kompyuter grafikasi va uning turlari	6
3. CorelDraw dasturiy paketining xususiyatlari	10
4. CorelDraw dasturining uskunalar paneli va vazifalari	13
5. CorelDraw dasturida yangi oyna ochish. Instrument panellari va ularning vazifalari	23
6. Kontur chiziqlar chizish. Tekis ikki o‘lchamli shakllar chizish usullari	31
7. Ranglar va effektlar bilan ishlash. Perspektiv tasvirlar ishlash	47
8. Shriftlar bilan ishlash va ularning turlari	56
9. CorelDraw dasturida obyektlarni tahrirlash (qayta ishlash)	63
10. CorelDraw dasturida effektlar bilan ishlash	65
11. CorelDraw dasturi obyektlarni o‘zaro joylashtirish	70
12. CorelDraw dasturida xujjatlar bilan bajariladigan amallar	73
13. CorelDraw dasturida shakllar chizish, konturlar bilan ishlash va tahrirlash.	
CorelDraw dasturida turli ko‘pburchaklar chizish	75
14. CorelDraw dasturida shriftlar bilan ishlash va ularning turlari	77
15. CorelDraw dasturida ranglar bilan ishlash	81
16. CorelDraw dasturida maxus effektlar yaratish	82
17. CorelDraw dasturida qatlamlar (sloy) bilan ishlash	88
18. CorelDraw dasturida obyektlarni import va eksport qilish amallari	91
19. Turli zamонавиј infografiklar yaratish	92
20. Vizitka, buklet, turli o‘lchamdagи reklama bannerlarini yaratish	95
21. Nazorat savollari	98
22. Test savollari	99
23. Glossary	104
24. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	109

KIRISH

Kompyuter grafikasi tushunchasi hozirgi keng qamrovli sohalarni o‘zida birlashtirgan bo‘lib, bunda oddiy grafik chizishdan toki real borliqdagi turli tasvirlarni hosil qillish, ularga ko‘rinish berish, dastur vositasi yordamida tasvirga doir yangi loyihalarni yaratishga mo‘ljallangan. Bu esa multimedia muhitida ishlash imkoniyatini yaratadi. Kompyuter grafikasi jamiyatning barcha sohalarida keng qo‘llaniladigan dastur ta‘minoti bo‘lib, u mayjud va yangi yaratilayotgan dasturlarga asoslanadi. Kompyuter grafikasi jarayonlarni uch o‘lchovli fazoda qanday kechishini aniq tasvirlash imkoniyatini yaratdi. Shu boisdan hozirda mayjud amaliy dastur paketlari orqali ko‘rilayotgan masalaning asosiy qlymatlarini kiritgan holda uning natijasini grafik shaklda olishimiz mumkin. Yurtimizda ham dasturlashga bo‘lgan talab va e’tibor oshib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. M. Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy majlisiga qilgan murojaatnomasida ta‘kidlangan «Soha uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadida xorijiy hamkorlarimiz bilan birgalikda 1 million dasturchi¹ loyihasini amalgalashirilishi dasturlashga bo‘lgan e’tibordan darak beradi. Bu loyihadan ko‘zlangan maqsad kelgusida jamiyatimizning qurilish, energetika, qishloq va suv xo‘jaligi, transport, geologiya, kadastr, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, arxiv sohalarini raqamlashtirishdan iborat. Hozirda kompyuter grafikasi ilmiy xodimlar uchungina emas, balki rassomlar, loyihachilar, dizayn va reklama bilan shug‘ullanadigan mutaxassislar, web sayt yaratuvchilar, o‘qitish jarayoni va boshqa sohalarda keng qo‘llanmoqda. Shuning uchun kompyuter grafikasi sohasida yetuk kadrlarni tayyorlash, yosh kitobxonlarga kompyuter grafikasiga doir adabiyotlarni yetkazish oldimizda turgan vazifalardan biri hisoblanadi. Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda ushbu o‘quv qo‘llanmada tasvir turlari, kompyuter grafikasi turlari, grafik formatlar, rang modellari, proyeksiyalar, tasvirlarni sifatini yaxshilash usullari, tasvirlarni filtrlash, Adobe Flashda animatsiyalar kabi mavzular to‘liq yoritib berilgan. O‘yaymanki, ushbu o‘quv qo‘llanma olyi o‘quv yurti talabalari, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, umumiy o‘rta maktab o‘quvchilari va mustaqil o‘rganuvchilarda kompyuter grafikasiga bo‘lgan qiziqishini oshirishga, dasturlash muhitida ishlash va

¹<https://review.uz/uz/post/uzbekiston-respublikasi-prezidenti-savkat-mirzieevning-oliy-majlisiga-murozaatnomasi>

mustaqil dastur tuzishga, mamlakatimizning turli sohalari uchun ilovalar yaratishga, zamонавиу ахборот технологиялари виситаларидан foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga va ularning amaliy ishlarida yangi qirralarning ochilishiga zamin hozirlaydi.

"Kompyuter grafikasi va dizayn" fanining maqsad va vazifalari,

Kompyuter grafikasi— grafik display (monitor) ekranida tasviriy informatsiyani vizuallash ("ko'rinishdagi" qilish). Tasvirni qog'ozda, fotoplyonkada, kinolenta va boshqalarda aks ettirish usulidan farqli ravishda Kompyuter grafikasida kompyuterda hosil qilingan tasvirni darhol o'chirib tashlash, unga tuzatish kiritish, istalgan yo'nalishda toraytirish yoki cho'zish, yaqinlashtirish va uzoqlashtirish, rakurenn o'zlashtirish, burish, harakatlantirish, rangini o'zgartirish va boshqa amallarni bajarish mumkin. Kitoblarni bezash, rasm va chizmalarni tayyorlashda buyumlarni loyihalash va modellarini yasashda, telereklamalar yaratishda, televizion eshitirishlari "qistirmalari" (zastavkalari)ni, multfilmilarni yaratishda, kinofilmrlarda qiziqarli kadrlar hosil qilish va boshqa ko'p sohalarda qo'llaniladi².

Kompyuter grafikasi bilan ishlovchi dasturlar qatoriga bir qancha dasturlarni sanab o'tish mumkin. Jumladan, Microsoft Paint, Adobe Photoshop, Adobe Illustrator, Corel Draw, Adobe Freehand, Adobe InDesign, Adobe ImageReady, Adobe Flash, Discreet, Cinema 4d, Alias, Autodesk Maya, LightWave, Adobe Brush va hokazolardir. Ushbu dasturlarda kompyuter grafikasiga oid ishlarni amalga oshirish mumkin. Ba'zilarida oddiy rasm chizish mumkin bo'lsa, ba'zilarida uylar proyektlari, ba'zilarida esa uch o'lchamli modellashtirish va hattoki to'rt o'lchamli modellashtirish mumkin bo'ladi. Inson tashqi dunyo haqidagi axborotning asosiy qismini ko'zlarini yordamida qabul qiladi. Ko'rish tizimi turli obyektlarning tasvirini qabul qilib oladi. Ular yordamida insonda tashqi muhit va undagi obyektlar haqida tasavvur paydo bo'ladi. Obyektlarning tasvirini yaratish, ularni saqlash, qayta ishlash va tasvirlash qurilmalarida tasvirlab berish kompyuterning eng qiyin va asosiy masalalaridan biridir. Kompyuterga hech qanday topshiriq berilmaganda, ya'ni bekor

turganida ham ekranida ko'rinishi kerak bo'lgan tasvirni sekundiga o'nlab marta qayta ishlab ko'rsatadi. Kompyuterning ekranida paydo bo'ladigan tasvirlar uning videokarta deb ataluvchi qurilmasi yordamida yaratiladi va ekranga chiqariladi. Videokartalar uchun maxsus videoprotessorlar ishlab chiqariladi. Videoprotessorlar kompyuterning asosiy protsessorini murakkabligi va hisoblash ishlarini bajarish tesligi bo'yicha ortda qoldirib ketgan.

Kompyuterning ma'lumotlarni elektron ko'rinishda tasvirlash qurilmasi monitor (monitor - kuzatish, nazorat) deb ataladi. Kompyuterda bo'layotgan jarayonlarni monitor orqali kuzatish mumkin. Monitorning tasvirlar ko'rsatiladigan qismi, ya'ni ekran display (display - tasvirlamoq) deb ataladi. Hozirgi paytda alohida korpusda yig'ilgan tasvirlash qurilmalari kompyuter monitori, kompyuter bilan birga joylangan tasvirlash qurilmalari (masalan, noutbuk, planshet hamda telefonlarda) display deb atalmoqda.

Display to'g'ri to'rtburchak ko'rinishida bo'lib, uning tomonlari nisbati odatda 16 ga 9 kabi bo'ladi. Bundan tashqari, display tomonlari nisbati 16 ga 10, 4 ga 3, 5 ga 4 kabi bo'lishi ham mumkin. So'nggi paytda 21 ga 9 nisbatdagi displaylar ishlab chiqarila boshlandi. 16x9 va 16x10 nisbatli displaylar keng, 21x9 nisbatilari o'ta keng, 5x4 nisbatilari kvadrat displaylar deb ataladi. Piksellar soni bo'yicha displaylardan keng tarqalganlari va ularning nomlari quyida keltirilgan:

320x240 CGA (Color Graphic Adapter - rangli grafik qurilma);

640x480 VGA (Video Graphic Adapter - video grafik qurilma);

800x600 SVGA (Super VGA);

1024x768 XVGА (extended VGA - kengaytirilgan VGA);

1280x720 HD (High Definition - yuqori aniqlik);

1280x800 HD+ (HD dan ko'proq);

1366x768 WXVGA (Wide XVGА - keng XVGА);

1440x900 HD++ (HD dan yanada ko'proq);

1600x900 HD+++ (HD dan yanada ko'proq);

1920x1080 FHD (Full HD – to'liq HD);

² https://uz.wikipedia.org/wiki/Kompyuter_grafikasi

Varadisht ushligga ko, ra kompyuter grafikkasi ikki suruhga asrattdagi:

- ◀ *2D (ingizcha two dimension - ikki o tchamti jumlasidan olimgan).*
- ◀ *3D (ingizcha three dimension - uch o tchamti jumlasidan olimgan).*
- ◀ *(maxsus mato) da chiziqan rasmlarini keltirish muumkin.*
- Uch o tchamti grafikkaya yassi va teki's strilardira yaratilg'an rasvitalgar b'o lib, ulrag'a rasol sifatida primereda oqzozga chop ettilg'an solosurta, rasom tomnidan xotsi fitchik bo lasa, tison ko zi ultarni ilg' amaydi va kublar yaxlitir bir jism sifatida ko z borliq yaratishda keng soydadamladi. Kompyuter o yilmatir va virtual (xayoty) shug, ulramad. Ularga misol sifatida rasmlar, solosurralar, chizmalarini keltirish muumkin. Kompyuter animatsiyasi vayti o tish bilan o zgaradig'an tasvirlar yaratadi. Masalan, multimedialar, videoklip va videorollklar.*
- Oddy grazhika vayti o tish bilan o zgarmanydig'an tasvirlarini yaratish bilan shilemlerida tasvirlanadi.*
- Uch o tchamti grafikkadan animatsiya, kompyuter o yilmatir va virtual (xayoty) shug, ultamad. Ularga misol sifatida rasmlar, solosurralar, chizmalarini keltirish muumkin. Kompyuter animatsiyasi vayti o tish bilan o zgaradig'an tasvirler yaratadi. Masalan, multimedialar, videoklip va videorollklar.*
- Asboroldarini, masalan, ovoz va matmatik ham o z ichiga oldali. Multimedialarning o'ziga os jihat uning interfaoliyi bo lib, unda bir joy dan ikkinchi joyiga o'tish imkoniyatlari ko zda tilulg'an bo latdi. Multimedia yorqin misol sifatida butun odam to fi - www, undagi www-saytlar va www-sahifalarini keltirish muumkin.*

SAVOL VA TOPSHIRGLAR

1. Kompyuter grafikasi qanday san?
 2. Kompyuter grafikastaning qanday turlati mavjud?
 3. Rasftir hima?
 4. Fraktal grafikasi nimaga asoslangan?
 5. Fraktal geometriasi asoschisi kim?
 6. Vektorli grafika bugungi kunda qaysi sohalarida keng o'tlantimoyda?

Kompyuter grafikasi va uning turlari



Ikki o'lchamli kompyuter grafikasi quyidagi turlarga ajratiladi:

- * *rastrli grafika;*
- * *vektorli grafika;*
- * *fraktal grafika.*

Rastr so'zi informatikaga televideniyedan kirib kelgan bo'lib, lotin tilidagi rastrum - xaskash, omoch so'zidan olingan. Rastrli grafikada tasvir qatorlar va ustunlarga bo'linadi, tasvirning mayda bo'laklari – piksellardan iborat bo'ladi. Rastrlar zichligi deganda uzunlik birligiga mos keladigan piksellar soni tushunitadi va dpi (dots per inch – bir dyuymdagi nuqtalar) da o'lchanadi.

*Masalan, 3200x2400 o'lchamli tasviri 300 dpi zichlikda chop etish uchun 11x8 dyuym² o'lchamli qog'oz kerak bo'ladi. 1 dyuym=300 bo'lsa, 1dyuym² =90.000 (3200*2400)/9000 =85,3 bu esa taxminan 11x8 dyuym² ga teng. Tasvirlarni oddiy grafik shakllar yordamida yaratish vektor grafikasining asosini tashkil etadi. Vektor grafikasida tasvir chiziqlardan tashkil topadi.*

Fraktal so'zi lotinchcha fractus so'zidan olingan bo'lib, maydalangan, bo'lib chiqilgan degen ma'noni bildiradi. Fraktallar deb o'ziga o'xshash qismlardan iborat bo'lgan geometrik shakllarga aytildi. Fraktal atamasi fanga 1975-yili kiritilgan bo'lib, ular yordamida daraxtlar, o'rmonlar, bulutlar, mavjlanayotgan dengiz, alanga va tutun, oqayotgan suyuqlik kabi tasvirlarni yaratish mumkin. Fraktallardan virtual borliq, animatsiya, kompyuter o'yinlari va matematik modellashtirishda keng foydalilanladi (1-rasm).



I-rasm. Fraktal tavirlarning ko'rinishi.


Yuqorida keltirilgan rastr, vektor va fraktal grafikalari o'rtasidagi asosiy farq nuring display ekranidan o'tish usulidan iborat. Eslab qoluvchi elektron-nurli trubkalarga ega vektorli qurilmalarda nur berilgan trayektoriya bo'ylab bir marta chopib o'tadi, uning izi esa ekranда keyingi buyruq berilgungacha saqlanib qoladi. Demak, vektorli grafikaning asosiy elementi — chiziqdir.

Vektorli grafika bilan ishllovchi dasturiy vositalar birinchi navbatda tasvirlarni yaratishga mo'ljallangan. Bunday vositalar reklama agentliklarida, dizaynerlik byurolarida va nashriyotlarda qo'llaniladi. Rastrli qurilmalarda esa tasvir ularni tashkil etuvchi nuqtalar majmuasidan vujudga keladi. Bu nuqtalar piksellar (pixels) deb ataladi.

Rastr — bu ekranning butun maydonini qoplovchi piksellar matritsasidir. Demak, rastrli grafikaning asosiy elementi nuqtadan iborat. Rastrli grafika vositalari bilan tayyorlangan tasvirlar kompyuter dasturlar yordamida kamdan-kam holdagina yaratiladi. Ko'pincha ushbu maqsadda rassom tayyorlangan tasvirlar yoki rasmlar skanerlanadi. Rastrli tasvirlar bilan ishlashga mo'ljallangan ko'pgina grafik muxarrirlar asosan tasvirlarga ishlov berishga mo'ljallangan. Internet tizimida ko'proq rastrli tasvirlar qo'llanilmoqda.

Fraktal badiiy kompozitsiyani yaratish — bu tasvirni chizish yoki jihozlash emas, balki uni dasturlashdir, ya'ni bunda tasvirlar formulalar yordamida ko'rildi.

Fraktal grafika odatda o'yin dasturlarida qo'llaniladi. Tasvirlarni arxivlash uchun yanada ko'proq imkoniyatlar mavjud. Birinchidan matnning sifatini pasaytirib bo'lmaydi, unda ba'zi belgilarning tushib qolishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Rostdan ham, agar Nodirning ismini ozgina qisqartirib, Nodi deb ketsak, Nodir bizdan astoydil xafa bo'ladi. Tasvirlarda esa ko'z ilg'amaydigan 30 elementlarni tashlab ketsa ham bo'ladi, ya'ni tasvir sifatining bir qadar yomonlashishiga yo'l qo'ysa bo'ladi. Ikkinchini tomonidan, kompyuter alifbosida bor-yo'g'i 256 ta belgi bo'lsa, rasm elementlari – piksellarning ranglari bir necha milliard qiymatdan birini qabul qilishi mumkin. Boshqa tomonidan eng katta rasmlarda ham ko'pi bilan bir necha million piksel bo'lishi mumkin. Bu esa rasm lug'atini tuzish uchun keng imkoniyatlar ochib beradi. Rasmdagi piksellar sonining kattaligi ham undan ko'plab takrorlanadigan piksellar ketma-ketliklarini topishga imkon beradi. Misol sifatida keltirilgan osmon o'par binoning rasmining asosiy qismini ko'mko'k osmon tashkil etadi. (2-rasm) Unda esa takrorlanadigan piksellar juda ko'p. Natijada rasm hajmi yuz barobargacha va undan ko'proq kamayishi mumkin.



2-rasm. Burj Khalifa. Birdashgan Arab Amirliklarining Dubai shahrida qurilgan osmono'par bino.

Grafik formatlar. Tasvirlarni kompyuter xotirasida saqlash uchun ko'plab formatlar ishlab chiqilgan. Quyida eng ko'p ishlataladigan formatlarni ko'rib chiqamiz.

BMP (ingliz tilidagi Bitmap Picture) – rastrli tasvir.

GIF (Graphics Interchange Format) – tasvirlar almashish formati. Bir faylda bir necha tasvirlari saqlay oladi va soda animatsiyalar uchun juda qulay.

TIFF (ingliz tilidagi Targed Image File Format) belgilab chiqilgan tasvir fayli formati. Rasmlarni tayyorlashga ishlataladigan eng keng tarqalgan rastr formatlardan biri *TIFF* (Target Image File Format), 1986 yilda Aldus korporatsiyasi tomonidan yaratilgan bo'lib, grafik fayllarni IBM-mos keluvchi kompyuterlardan Makintoshga yoki aksincha, o'tkazish paytda paydo bo'ladigan qiyinchiliklarni bartaraf etadi.

JPEG (Joint Photographic Experts Group) - fotografiya ekspertlarining birlashgan guruhi (Yevropa ittifoqi) tomonidan ishlab chiqilgan. *JPEG* tasvirni zichlashi, kichraytirishi mumkin, bu tasvir sifatini pasayishiga olib keladi. *PCX* (PC eXchange) - shaxsiy kompyuterda ma'lumot almashish formati.


RAW (ingliz tilida raw) - xom, hali tayyor emas, degan ma'noni bildiradi. Sifatlari fotoapparatlarda olingan suratlarni saqlash uchun ishlataladi.

PNG (Portable Network Graphics) - tarmoq uchun portativ (ixcham) grafikasi formati. Ushbu format yosh va *GIF* va *JPEG* formatlarining afzalliklarini birlashtiradi. Bu sizning rasmingiz sifatini yo'qtmasdan sezilarli darajada siqish imkonini beradi.

PDF (ingliz tilida Portable Document Format) - elektron hujjatlar formati.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Tasvirlarni arxivlash qanday bajariladi.
2. Iffi o'chovli grafika turlari.
3. Fraktal badiiy kompozitsiyani yaratish usullari.
4. Vektorli grafika elementi.
5. Rastrli grafika elementi haqida tushuncha.
6. Rastrli grafika zichligi nima va qanday birlikda o'chanadi.
7. Tasvirni saqlashning qanday format turlarini bilasiz.



3-rasm. Tasvir formatlari.

CorelDraw dasturiy paketining xususiyatlari


1987 yilda Corel muhandislari Mishel Bouillon va Pat Byrne o'zlarining ish stoli nashriyot tizimlari bilan birlashtirish uchun vektorga asoslangan illyustratsiya dasturini ishlab chiqishni o'z zimmalariga oldilar. Dastlab CorelDraw dasturi 1989 yilda chiqarilgan.

Agar siz rasm chizishni yoki tashrif qog'ozini, bannerlarni, afishalarni va boshqa vizual mahsulotlarni yaratishni rejalashtirmoqchi bo'lsangiz, Corel Draw-dan ishonchli foydalanishingiz mumkin. Ushbu dastur sizga xohlagan narsangizni chizishga va bosib chiqarish uchun sxemani tayyorlashga yordam beradi.



4-rasm. CorelDRAW dasturi logotipi

CorelDraw dasturi ishga tushirilgandan keyin ekranda CORELDRAW dasturiga XUSH KELIBSIZ (welcome to Corel DRAW) so'zi nomayon bo'ladi va dasturni ishga tushirishning bir nechta variantlarini tanlashni so'raydi: Yangi hujjat (New Graphic), oxirgi ishlangan hujjatni ochish (Open Last Edited), hujjatni ochish (Open Graphic), tayyor shablonlarni ochish (Template), dastur o'rgatuvchini ishga tushirish (CorelTUROR). Yangi hujjatni yaratish uchun menyuning Fayl (File) va Yangi hujjat buyrug'i (New) yoki uskunalar satridagi maxsus tugma bosiladi. Hujjatni ochish uchun menyuning Fayl (File) va Ochish (Open) buyruqlari yoki uskunalar satridagi maxsus tugmalar yordamida amalga oshiriladi. CorelDRAW dasturida bir vaqtning o'zida bir nechta hujjatlar bilan ishlash imkoniyatlari bor, shu bilan birga kerak bo'lмаган hujjatlarni yopib qo'ysa ham bo'ladi. Bu esa, menyuning Fayl yopish (Close) buyrug'i yordamida amalga oshiriladi.



5-rasm. CorelDRAW 2021 dasturining ishga tushirgandagi ko'rinishi


CorelDRAW dasturini o'rganishning eng samarali usuli bu-dasturda ko'proq amaliy ish bajarishdir. Dasturni endi o'rganishni boshlagan foydalanuvchilar katta miqdordagi murakkab ma'lumotlarni o'zlashtirmasdan ham ushbu grafik dasturdan oson foydalana olishi mumkin.

Corel kompaniyasi CorelDRAW Graphics Suite dasturlar to'plamini rivojlanтиrish yo'lida ko'plab yangiliklarni yaratmoqdalar. Mazkur dasturning yangi avlodlari yangi funksiyalari va quaylilari fikrimiz isbotidir. Kompaniya mutaxassislarining ta'kidlashicha, bu dasturlarda o'nlab sezilarli o'zgarishlar va yuzlab qo'shimcha funksiyalar kiritilgan.

CorelDRAW dasturi asosan vektorli tasvirlar yaratish uchun mo'ljallangan bo'sida, unda ratsrlar tasvirlar bilan ishash imkoniyati ham mavjud.


Vektorli tasvir deb, fuqat yaqol ajrılığan naqta (tugunjlar) va hə nuqtalarını matematik qonunlarga asosan birləşdirir və (tatashirnychil)chiziqlardan təşkil təngən tasvirdə avtifadı.

Vektorli figuralar ichki tomondan bo'yalgan qism va tashqi tomondan o'rab turuvchi bo'yalgan chiziq (chegara)ga ega bo'lishi mumkin (6-rasmi)



6-rasm. Vektorli tasvirning ichki va tashqi qismlari

CorelDRAW dasturida yaratilgan hujjatlarda OLE (Object Linking and Embedding – obyektlarni bir-biriga bog'lash va joriy qilish) texnologiyasi orqali yaratilgan maxsus obyektlar ham ishlatalishi mumkin. Bunday obyektlarni o'zgartirish uchun, obyekt ustiga ikki marta sichqoncha chap tugmasini bosish orqali bu obyekt yaratilgan dasturni ochib o'zgartirish mumkin (7-rasm).



7-rasm. Ratsrli rasmni tahrirlash

CorelDraw dasturining uskunalar paneli va vazifalari.

CorelDRAW xozirda eng ko'p tarqalgan vektorli grafik muharrirlardan biri hisoblanadi. Ishlatish va sozlash qulayligi, tarkibiga kiritilgan ko'plab effektlar to'plami foydalamuvchilarni bu dasturni ishlatishga yanada ko'proq jaib qilmoqda. Dastur interfeysining qulayligi qisqa vaqtda uning asosiy imkoniyatlari haqida tushuncha xosil qilish imkoniyatini beradi. CorelDRAW dasturini o'rGANISHNING eng samarali usuli - bu dasturda ko'proq amaliy ishlashdir. Dasturni endi o'rGANISHNI boshlaganlar ham oson o'zlashtirishi mumkin.

Vektorli tasvir deb, faqat yaqqol ajratilgan nuqta (tugun)lar va bu nuqtalarni tutashtiruvchi chiziqlarlardan tashkil topgan tasvирга аytildi. Vektor grafikasida

tasvir vektor deb nomlanuvchi chiziqlar asosida qurilib, ularga turli parametrlar - rang, chiziq qalinligi va joylashuvi (vaziyati) xususiyatlari beriladi.

Afzalligi:

- Vektor grafikasi printering barcha sifat sig' imidan foydalanib, tasvir mashtabi o'zgartirilganda ham uning sifatini saqlab qoladi;
- Vektor grafikasi alohida obyektlarni tahrirlash imkonini beradi va tasvirlar oson tahrirlanadi;
- Vektorli grafika agar tasvirda rasrli obyektlar qo'llanmagan bo'lsa xotirada kam joy egallaydi.

Qo'llanish sohasi:

- Kompyuterda loyihalash tizimlarida;
- Elektron va poligrafik nashriyotlarda, Web dizaynda;
- Kompyuter dizayni va reklamada.

CorelDRAW dasturining ustunliklaridan biri, uning qulay va oson sozlanadigan foydalanuvchi interfeysiadir. Dastur oynasi ko'pgina xizmatchi elementlardan tashkil topgan. Ushbu elementlar bilan qisqacha tanishib o'tamiz.

Dasturni kompyuterga o'rnatganimizda quydagicha ko'rindi. Mazkur belgi ustiga sichqoncha o'ng tugmasini ikki marta bosish orqali dasturga kiriladi.


Bosh menu-CorelDRAW dasturida ishlataladigan barcha buyruqlar joylashgan element.

Standart panel - asosiy tahrirlash operatsiyalarini bajarishga mo'ljallangan tugmalardan iborat element.


Kontekstga bog'liq o'zgaradigan **Xususiyatlar paneli**, ya'ni belgilangan va aktiv bo'lgan obyektga mo'ljalanib o'zgaradigan panel.

Uskunalar paneli-turli obyektlarni joylashtirish imkoniyatini beruvchi panel.

Ranglar palitrasи — obyektlarni bo'yashga mo'ljallagan ranglar to'plami. Foydalanuvchi ehtiyojiga ko'ra ekranga qo'shimcha interfeysi elementlarini ochib olishi mumkin. Buning uchun yuqorida keltirilgan elementlarda sichqoncha o'ng tugmasi bosilganda ochiladigan kontekstli menyudan foydalanish mumkin.



8-rasm. CorelDRAW dasturi logotipi



9-rasm. CorelDRAW dasturi oynasining umumiy ko'rinishi

Файл (File) – hujjatlar bilan ishlash buyruqlari: yaratish, ochish, saqlash, import v eksport, nashr qilish va boshqalar.

Правка (Edit) – Umumiy tahrirlash, qidiruv v ayrim turdag'i maxsus obyektlar bilan ishlash buyruqlari joylashgan.

Вид (View) – obyektlarni turli rejimlarda ko'rish, dasturning qo'shimcha oynalarini chiqarish va yashirish uchun buyruqlar joylashgan.

Макем (Layout) – hujjat parametrlarini sozlash, hujjatga sahifa qo'shish va olib tashlash.

Лоҳийотиши (Arrange) – obyektlarning birgalikda joylashishinio 'zgartirish va kombinatsiyalashtirish.

Эффекты (Effect) – Obyektlarga qo'llash mumkin bo'lgan rang va vektor effectlarini boshqarish.

Расмийатиши (Bitmaps) – rastrli tasvirlarni tahrirlash.

Текст (Text) – matnli obyektlar bilan ishash

Таблици (Table) – jadvallar yaratish va tahrirlash

Инструменты (Tools) – dasturni sozlash va ayrim qo'shimcha xususiyatlar oynalarini ochish.

Окна (Window) – hujjat oynalarini boshqarish va dasturning qo'shimcha panellarini ochish.

Справка (Help) – yordam tizimi va foydali havola (silka)lar.

Shuni ta'kidlash kerakki CorelDRAW dasturining bosh menyusi boshqa grafik muharrirlar menyusidan ancha boyitilgan hisoblanadi. Shuning uchun menyudagi barcha buyruqlarni esab qolish qiyin bo'lishishi mumkin. Shuning uchun ayrim buyruqlarni klaviatrudagi tugmalardan foydalanib bajarish tavsiya etiladi.

Standart panel.

Standart ( ) panelida joylashgan tugmalar bosh menyuning eng ko'p ishlataligan buyruqlari hisoblanadi.



10-rasm. Standart panel.

Bu panelda quyidagi tugmalar mavjud:

Создать (New) – yangi hujjat yaratish.

Открытие (Open) – hujjat ochish.

Сохранение (Save) – hujjatni saqlash.

Печать (Print) – hujjatni chop etish.

Вырезать (Cut) – belgilangan obyektni buffer (vaqtinchalik xotira)ga qirqib olish.

Копирование (Copy) – belgilangan obyektni buffer (vaqtinchalik xotira)ga nusxa olish.

Вставить (Paste) - buffer (vaqtinchalik xotira)dagi obyektni qo'yish.

Откат (Undo) – oxirgi bajarilgan amalni bekor qilish.

Восстановление (Redo) – bekor qilingan amalni tiklash.

Импорт (Import) – hujjatlar olib kirish

Экспорт (Export) – hujjatlarni chiqarish (saqlash)

Запуск приложения (Aplication Launcher) Corel Graphics Suite dasturlar paketi tarkibiga kiruvchi ixtiyoriy dasturlarni ishga tushurish.

Экран приложения (Welcom screen) – CorelDRAW dasturini ishga tushirganda ochiladigan oynaning ko'rinishi.

Масштабирование (Zoom levels) hujjatni ko'rish mashtabini tanlash.

Привязка к (Snap to) – obyektlarni bog'lash usullarini tanlash menyusi.

Параметры (Option) – dastur sozlamalari oynasini ochish.

Panel tugmalaridagi tasvirlar, ularning vazifasini to'liq aks ettirmasligi mumkin. Agar tugmalarga sichqoncha ko'rsatgichi olib kelinib bir necha sekund kutilsa, tugma bajaradigan amalini tushuntiruvchi izoh paydo bo'ladi.

Uskunalar paneli.

Uskunalar paneli hujjatga turli obyektlarni joylashtirish va ularning ko'rinishlarini o'zgartirish imkoniyini beradi. Paneldagi ayrim tugmalarda vazifasiga ko'ra yaqin bir nechta obyektlar guruhlarga ajratilib joylashtirilgan. Uskunalar panelidan joylashtirilgan obyektlarga mos ravishda xususiyatlar paneli o'zgaradi.



11-rasm. Xususiyatlar panelining o'zgarishi.


Uskunalar panelini ekrandan olib tashlash va ekranga chigarish uchun bosh menyuning *Оқна-Панели-Набор инструментов* bo'limidan yoki standart panelda kontekstli menyuning *Набор инструментов* bandidan foydalaniш mumkin. Quyidagi rasmida Uskunalar paneli guruhlari vazifalari keltirilgan.

- | | |
|---|--|
| Obyektlarni belgilash | |
| Obyekt shakllarni o'zgortirish | |
| Obyekt va uning qismlarini qirqish | |
| Hujjat sahifalarini ko'rish
Mashtabni o'rnatisht | |
| Turli chiziqlar va Erkin shakllar chizish | |
| Badiiy bezash uchun chiziqlar | |
| Tog'ri to'rtburchaklar chizish | |
| Aylana va ovallar chizish | |
| Ko'pburchaklar va spirallar joylashtirish | |
| Matn qoyish va uni tahrirlash | |
| Parallel o'lchmlar qo'yish | |
| Chiziqlarni birlashtirish | |
| Obyektlarga soaya berish
Interaktiv soya | |
| Shaffoflik hosil qilish | |
| Obyektlarga ranglarni ko'chirish | |
| Obyektlarni interaktiv bo'yash | |

12-rasm. Uskunalar paneli va ularning vazifalari.

Holatlar satri.

Holatlar satrida ayni vaqtida aktiv (faol) yoki belgilangan obyektlarga mos ma'lumotlarko'rindi. Masalan obyektlarni belgilash uskunai tanlanib olti qirrali ko'phurchak obyekti tanlangan bo'lsa holatlar satri quyidagi ko'rinishda bo'ladi.




13-rasm. Holat satrlari.

Holatlar satrining chap yuqori qismida obyektning geometrik o'lchamlari, va bu obyekt markazining koordinatalri, panelning yuqori markazida obyekt tipi va u joylashgan qatlama nomi k'rinadi. Panelning o'ng tomonida bo'yash rangi va tashqi chiziq'i rangi va qalinligi ko'rindi. Panelning chap pastki qismida sichqoncha ko'rsatgichining joriy koordinatalari ko'rinsa, pastki markazdi ayni vaqtida aktiv bo'lgan uskuna uchun foydali ma'lumotlar ko'rindi.

Qo'shimcha oynalar.


Qo'shimcha ochiladigan oynalar ko'pgina amallarni bajarishda obyektlarni siljitim, kerakli qatlama o'rnatishtdan boshlasht to turli xil veb havolalarni ko'rsatishgacha qo'llanilishi mumkin. Bu oynalar odatda dastur oynasining o'ng qismida joylashgan bo'ladi.



14-rasm. Qo'shimcha oynalar.

Ekranda joyni tejash uchun qo'shimcha ochilgan oynalarni ekranning bo'sh qismiga sarlavhasidan sichqoncha yordamida ushlab siljitim mumkin. Siljitimdan oynani yna ekranni o'ng tomoniga qaytarish uchun uning sarlavhasiga ikki marta sichqoncha chap tugmasi bosiladi. Odatda har bir ochilgan qo'shimcha oyna bir nechta qismlardan tashkil topgan bo'ladi.

Masalan *Свойства объекта* oynasi to'rtta qismidan tashkil topgan.



15-rasm. Qo'shimcha oyna va uning tarkibiy qismlari.

Qo'shimcha oyna tarkibidagi qismlarga o'tish uchun ularning yuqori qismidagi belgiga sichqoncha chap tugmasini bir marta bosish kifoya.

CorelDraw dasturida qo'shimcha ochiladigan oynalarning ro'yhati keltirilgan.

Свойства (Properties) – obyektning barcha xususiyatlarini ko'rish va o'zgartirish imkoniyatini beruvchi oyna;

Листер объектов (Object Manager) – obyektning qatlamlar va sahifalar bo'ylab joylashganini ko'rsatuvchi oyna;

Напоминки (Hints) – belgilangan (joriy) uskunalar bilan ishlash uchun ma'lumotlar;

Листер данных об объекте (Object Data Manager) – obyektlar haqida ma'lumotlarni ko'rsatuvchi oyna;

Листер видов (View Manager) – ko'rish mashtabini o'zgartirish uskunalari joylashgan oyna;

Листер связей (Link Manager) – hujjatga boshqa manbaalardan qo'yilgan tasvirlar bilan aloqalarni boshqaruvchi oyna;

Листер закладок Интернета (Internet Bookmark Manager) – internet zakladkalari bilan ishlash oynasi;

Листер символов (Symbol Manager) – Simvollar bilan ishlash oynasi;


Отмена (Undo) – bajarilgan amallar ro'yhatini ko'rsatuvchi oyna;

Графические и текстовые стили (Graphic and Text Styles) – grafik va matn stillarini ishlatalish oynasi;


Художественные средства (Artistic Media) – obyekt tashqi chiziqlariga qo'llaniladigan effektlar oynasi.

Kontekstli menu.


Kontekstlimenyu sichqoncha o'ng tugmasi yordamida ochiladi. Bu menyuning tarkibi sichqoncha qayerda bosilganiga qarab shakllanadi. Kontekstli menyuning tarkibi dasturning bosh menyusi buyruqlarini takrorlaydi. Kontekstli menyuning eng ko'p ochiladigan ko'rinishlarini ko'rib chiqamiz.




16-rasm. Bazaviy kontekstli menyu



17-rasm. Obyeektlarda ochiladigan kontekstli menyu.



18-rasm. Matnlarda ochiladigan kontekstli menyu



19-rasm. Dastur panellarida ochiladijan konteksti mun-

CorelDraw dasturida yangi oyna ochish, Instrument panellari va ularning vozifalari

Corel DRAW dasturi ishlaydigan barcha tasvirlar ikki sinfga bo'linadi: nuqtali va vektorli. Vektorli grafikada tasvirning asosiy elementi sifatida chiziq qaraladi. Rustrli grafikada bunday chiziglar nuqtalar (piksellar) vordamida yaratilsa, vektorli


grafikada esa tasvirlar yaratishda nuqtaga nisbatan umumiyoq bo'lgan chiziqlardan foydalilanadi va shuning hisobiga tasvirlar aniqroq bo'ladi.

Corel DRAW- vektorli grafikaning *WINDOWS* operatsion sistemasida ishlaydigan yangi grafiklar yaratish va tahrir qiluvchi dasturidir. Uning yordamida turli grafik ko'rinishlarni loyihalash, fotomatn, tasvirlar ustida ishlash, ayniqsa badiiy ko'rinishdagi kompasiyalarini tahrir qilish bilan bog'liq amallarni bajarish mumkin. *CorelDRAW* muharrirni ishga tushirish uchun *CorelDRAW* ning belgisiga borib «sichqoncha»ni yoki *ENTER* klavishini bosish kerak.

Uskunalar paneli ishchi oynaning chap tomoniga joylashtirilgan bo'ladi. Asoqlar panelida grafik obyekt ustida quyidagi amallar bajariladi – obyektlarni yaratish, obyektlarni ajratish, muharrirlash va ko'chrish uskunalarini joylashtirilgan. Uskunalar bilan ishlash paytida cursor tanlangan obyektga qarab formasini o'zgartiradi. Shu bilan birga, uskunalar panelidagi bazi bir uskunalar guruhini «Suzuvchi» panel ko'rinishida yoki Flyout ko'rinishida sozlash mumkin.


Dockers tipidagi panel muloqat oyna ko'rinishida bo'ladi. Bu panellar har doim ekranda mayjud bo'ladi va ishchi oyna yonida joylashadi. Ekranga kerakli bo'lgan panelni chaqirish uchun menuning Oyna (*Window*) va Dockers... (*Dockers...*) tipidagi panel buyrigi va ochilgan ro'yhatdagi panellardan bittasi tanlanadi.

- **Object Manager** paneli (*Листинг объектов*) — obyektni parametrlarini tasvirlaydi, obyekt yerarhiya va qatlamlarini boshqaradi.




20-rasm. Obyekt parametrlari

- **View Manager** paneli (*Членение видов*) — «tasvir ko'rishlari» tasvirlaydi va boshqaradi.




21-rasm. Tasvir ko'rishlari

- **Graphic and Text Styles** paneli (*Стили текста и графики*) — grafik va matnli stillarini yaratadi va o'zgartiradi.




22-rasm. Grafika va matn turlari

- **Color Styles paneli** (*Цветовые стили*) — obyektlar bilan ishlashda ranglarni tanlaydi va ular ustida amallar bajaradi.



23-rasm. Ranglar bilan ishlash.

- **Symbols and Special Characters paneli** (*Символы и специальные знаки*) — mayjud bo'lgan belgilarni tasvirlashda foydalananiladi.



24-rasm. Simvollar bilan ishlash.

- **Internet Bookmark Manager paneli** (*Листочктер менеджер Internet*) — gipermatnlarni boshqaris va yaratishda ishlataladi.
- **HTML Object Conflict paneli** (*Дизайнер конфликтов объектов HTML*) — internetda nashr etishdan avval hujjatlarni to'griligi tekshiradi va noto'g'rilarini tuzatadi.
- **Script and Preset Manager paneli** (*Листочктер макросов и готовых образцов*) — makrodasturlarni yozishda foydalaniladi.
- **Object Data paneli** (*malumotlar jamigarmasi*) — har bir obyektga jadvaldagи malumotlar berkitiladi, masalan, narhi, o'chhami va h. malumotlar.
- **Object Properties paneli** (*Свойства объектов*) — hujjatdagi obyektlarning barcha parametrlarini haqida malumot beradi va o'zgarish kiritadi.
- **Link Manager paneli** (*Листочктер связанных изображений*) — hujjatda mavjud emas, faqat u bilan bog'langan tasvirlarni boshqarish.
- **Bitmap Color Mask paneli** (*Цветовая маска точечного изображения*) — rastrli tasvirlar bilan ishlashda ranglar maskasini yaratish.
- **Lens paneli** (*Линза*) — linza turini tanlash va uning parametrlarini o'rnatish.
- **Artistic Media paneli** (*Иллюминация*) — vektorli qalamning murakkab turlari bilan ishlash.

- **Transformation** paneli (*Трансформирование*) — obyektlarni siljitishning har xil turlari bilan ishlash.
- **Shaping** paneli (*Изменение формата*) — bir nechta obyektlarni uch hil ko'inishda biriktirish.
- **Color** (*Цвет*) va **Color Palette Browser** (*Цветовые палитры*) panellari — ranglar bilan ishlash.
- **Browse** (*Обзор*) paneli — hujatlarni boshqarish va ularni har hil ko'inishlarda ko'rish.
- **Cliparts** (*Векторные изображения*), **Photos** (*Фотографии*), **3Dmodels** (*Графические модели*) panellari — dastur bilan birgalikda o'rnatilgan kompakt disklar bilan ishlash (CD-ROM).
- **FTP Sites** (*Сайты FTP*) paneli — FTP saytlarini saqlash va katta massivli malumotlarni ko'chirish uchun ular bilan tez boglanish.

Agarda yuqorida ko'rsatilgan menuda qandaydir buyruq bo'lmasa u holda menuning (Menu) Parametrlar (Options) yordamida qo'shish mumkin.

Menyunuing **Файл** (File) va **Открытие** (Open...) buyrug'i boshqa muharrirlar yordamida yaratilgan hujatlarni ochadi, bu yerda fayllar vektor formatli ya'ni masalan, **EPS** standart formatli bo'lishi kerak. Yuqoridagi buyruq bajarilgandan keyin ekranda **Открытие рисунок** (Open Drawing) muloqot oynasi chiqadi, bu yerda faylni qaysi jild va qaysi faylda ekanligini ko'rsatish kerak. Bu yerda **Просмотр** (Preview)dagi bayroqchani belgilash natijasida fayllar ichidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi. Agarda faylni o'qish mumkin bo'lmasa yoki boshqa sabablarga bog'lab o'qilmasa, ko'rish oynasida krest belgisi chiqariladi. Ko'rish maydoni tagidan fayl haqida ma'lumotlar chiqariladi:

- **Версия документа** (File Version) satrida hujtat xotirasida saqlangan dasturning versiyasi beriladi;
- **Степень сжатия** (Compression ratio) satri faylning siqilish foizini ko'rsatadi (vektor formati ixcham, o'lchami kichik bo'ladi, shunga qaramasdan dastur faylni avtomatik tarzda siqadi);

• **Сохранение** (Last saved by) satri dasturni versiyasi (platformasi) va uning relesi (masalan, build 337) haqida ma'lumot beradi.

• **Ключевые слова** (Keywords) va **Примечания** (Notes) foydalanuvchiga kerakli faylni (agarda berilgan ma'lumot faylni saqlagan paytda kiritilgan bo'lsa) tez qidirib topib berishda yordam beradi.

• Сохранить слои и страницы (Maintain layers and pages) bayroqchasi hujatdagi qatlamlar, sahifalar haqida konvertatsiya qilishni ta'minlaydi, CDR dan boshqa formatda bo'ladi.

Menyuning **Файл** (File) va **Импортировать** (Import...) buyrug'i CorelDRAW dasturining ochilgan joriy hujatdagi hujatni import qilishni ta'minlaydi va u ikkita usul bilan bajariladi:

- Fayllar orasida bog'lanish saqlanadi.
- Fayllar orasida bog'lanish saqlanmaydi.

Импортировать (Import) muloqot oynasining **Открыть рисунок** (Open Drawing) oynasidan farqi qo'shimcha funksiyalari va mumkin bo'lgan fayllar ro'yxati katta bo'ladi.

Размер изображения (Image size) satrida rastrli tasvirlarni import qilganda pikseldagi o'lchov birligi va ranglarning to'qligi bitlarda beriladi. Pastdagagi qatorlarda fayl formati va uning o'zgachaligi, masalan, siqish texnologiyasidan foydalanish va hokazo. Agarda fayl formati eskilarini saqlaydigan bo'lsa, uning matnini, **Примечания** (Notes) maydonidan kiritamiz.

CorelDRAW dasturida import qilingan tasvirlarni o'zgartirish uchun amallar bajarilgandan keyin ekranga boshqacha kursov chiqariladi. Shu kursov yordamida tasvirlni hujatning xoxlagan joyiga joylashtirishgan bo'ladi. Bu obyekt ustida mashtablashni ham bajarsa bo'ladi. Agarda proporsional mashtablamoqchi bo'lsak, u holda kursov bilan sohani chizib ko'rsatish kerak. Agar **<Alt>** tugmasi bilan mashtablashtirilsa proporsional bo'lmaydi. Agarda mashtablash aniqlikni talab qilsa, u holda muloqot oynasidagi **Импортировать** (Import) ro'yxatidan foydalanishga to'g'ri keladi. Ro'yxatda uchta variant mavjud:

1. Полное изображение (**Full Image**) tasvir hech qanday o'zgarishsiz import qilinadi.

2. Изменение параметров изображения (**Resample**) — ekranga muloqot oyna chiqariladi, bu oynaning o'lchamini va import qilinayotgan obyekt imkoniyati (oynaning pastki qismi o'zgartiriladi va avvalgi sayllar o'lchamlari baytlarda beriladi).

3. Кадрирование изображения (**Crop**) — ekranga muloqot oyna chiqariladi, oynada qo'l yordamida yoki mos bo'lgan qiymatlarni o'zgartirish bilan (Серпухов, **Top**, **Левая** (**Left**), **Ширина** (**Width**), **Высота** (**Height**)) import qilinadigan yuzani chegaralash mumkin. Импортировать (**Import**) muloqot oynasidagi Связь с внешним изображением (**Link bitmap externally**) bayroqchaning qo'yilishi import qilishning o'zgacha rejimi bo'ladi, ya'ni tasvirlar bir-biri bilan bog'langan bo'ladi (**linked image**).

CorelDrawning standart obyektlari ham mavjud, ular orasida murakkablari ham birqanchadir. CorelDrawda matnlar bilan ishlash matn redaktorlariga teng keladi desa bo'ladi. Bir qancha afzalliklar matnli hamda rasmi tasvirlar yaratish imkonini beradi. CorelDrawda har xil tasvirlar, ya'ni clipartlar mavjudligi tufayli foydalanuvchi osonlikcha ulardan foydalanib, matnlar bilan bezab, tayyor illyustratsiyalar yaratish mumkin. CorelDrawning ishlash prinsiplari quyidagilardan iborat:


* Matn kiritish va formatlash;

* Geometrik figuralar yoki egrilar, ochiq va yopiq shakllar tuzish;

* Har qanday obyektni sozlash, unga tus berish, shaklini o'zgartirish; □ Tayyor tasvir yoki oldin yaratilgan illyustratsiya kiritish;

* Tasviri y effektlar berish;

* Obyektlarni to'g'ri joylashtirish.



25-rasm. Effektlar.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. CorelDraw 2018 dasturining umumiy tuzilishi.

2. Dastur ishga tushirilgandan keyingi ishlar.

3. Xotirada bir nechta usullarda saqlash yo'llari.

4. Menyuning Файл (File) va Импортировать (Import...) buyrug'i.

5. CorelDRAW dasturida import qilingan tasvirlarni o'zgartirish.


6. Импортировать (Import) ro'yxatidan foydalanish.

Kontur chiziqlar chizish. Tekis ikki o'lchamli shakllar chizish usullari.

CorelDRAW dasturida uskunalar panelida kontur chiziqlar chizishning bir necha turlari mavjud.




Указатель (Pick) uskunasi dasturning asosiy asboblaridan biri bo'lib, uskunalar panelining birinchi elementidir. Bu uskuna tanlanganda sichqoncha ko'rsatkichi qora strelka ko'rinishiga o'tadi. Bu uskunaning asosiy funksiyasi obyektni belgilash va siljitishdir (26-rasm).



26-rasm. Указатель

Obyektlarni belgilashning ikki usuli mavjud. Obyekt ustida sichqoncha chap tugmasini bosish yoki ular ustida belgilash chegarasini tortish. Birinchi holatda bir nechta obyektlarni belgilash uchun *Shift* tugmasini bosib turish kerak. Agar belgilangan obyekt ustida *Shift* tugmasini bosilgan holda yana sichqoncha tugmasi bosilsa bu obyektning belgilanishi bekor qilinadi. Guruh tarkibiga kiruvchi obyekt ustida *Ctrl* tugmasini bosib turib sichqoncha tugmasi bosilsa, elementni bu guruhini buzmasdan belgilash mumkin bo'ladi.


Beglilangan obyekt yoki obyektlar guruhi atrofida qora rangdagi markerlar ko'rindi. Belgilangan obyekt geometrik markazi maxsus belgi bilan ifodalanadi (27-rasm).



27-rasm. Obyekt atrofidagi qora rangdagi markerlar

Agar bu markerlarni sichqoncha chap tugmasini bosib tortisa obyekt kattalashadi yoki kichiklashadi. Burchakdagi markerlar obyekt o'chamlarini uning proporsiyalarini saqlagan holda o'zgartirsa, yon tomonidagi markerlar uning kengligini, past va yuqoridagilari uning balandligini o'zgartirish imkoniyatini beradi.

Ayni vaqtida belgilangan obyekt va obyektlar ustida sichqoncha chap tugmasi bosilsa, bu obyekt markerlari ko'rinishi quyidagicha o'zgaradi (28-rasm).




28-rasm. O'zgargan markerlar yordamidagi figurani burish va egish

Vektorli egri chiziqlar shaklini o'zgartirish uchun qo'llash mungkin bo'lgan uskunalardan iborat bo'lgan guruhi (*Изменение формы*).


 Форма (Shape) uskunasi alohida tugunlar va segmentlarni o'zgartirish yo'li bilan figuralar shaklini o'zgartirish imkoniyatini beradi. Bunday figuralar tugunlar va ularni tutashtiruvchi segmentlardan tashkil topadi. Bu uskuna tanlanganda obyektlarda paydo bo'ladigan tugunlar, markerlar yordamida ularning shakllarini o'zgartirish mungkin. Shuningdek bu uskuna obyektlarga tugunlar qo'shish va ularni o'chirish imkoniyatini beradi. Tugun qo'shish uchun figura segmenti (Chizig'i) ustida sichqoncha tugmasi bosiladi va bunda nuqta paydo bo'ladi. Klaviaturadan "+" klavishi yordamida bu nuqtani tugunga almashtirish mungkin. Tugunni o'chirish uchun uni tanlab *Delete* yoki "-" tugmalari bosiladi (29-30 rasmlar).

Bu asbob tanlanganda murakkabroq amallarni bajarish uchun obyektlar ustida

o'ng tugma yordamida o'qiladigan kontekstli menyudan foydalanish mumkin.




29-rasm. Forma uskunasi yordmida qo'shimcha muqta hosil qilish yoki mayjudlarini olib tashlash




30-rasm. Forma uskunasi yordmida qo'shimcha qirra hosil qilish

Салжигчанин (Silliglash) uskunasi orqali chizilgan tekis shakllar qirralarini silliqlash mumkin. Bunda tekis shakllar tanlanib silliqlash uskunasidan foydalanib tekis shakllarning qirrasiga ustiga sichqoncha tugmasini bosgan holatda sichqoncha qirra ichi tomoniga harakatlantirib keyin qoyib yuborilsa, qirra silliqlanadi (31-rasm).




31-rasm. Слаживание

Macmaxuu (Paletli pichoq) Obyektning chetlarini kontur bo'ylab sudrab o'gartirish (32 rasm).




32-rasm. Macmaxuu

 **Воронка (O'rama)** Obyekt konturi bo'ylab sichqonchani bosib sudrab aylanish effektlarini qo'shish (33-rasm).




33-rasm. Воронка

 **Притягивание и Отталкивание (Bo'rttirish va Jozibadorlik)** Tugunlarni aktiv holatda obyektlarni qayta shakllantirish, shakllarini o'zgartirish (34-rasm).




34-rasm. Притягивание и Отталкивание

 **Размазывающая кисть (Smudge Brush)** uskunasi yuqoridagi uskuna kabidir. bu asbob yordamida tashgaridan figura ichiga tortilsa figura shakli "eziladi", ichkaridan tashgariga tortilsa "bo'rtadi" (35-rasm).




35-rasm. Размазывающая кисть

 **Грубая кисть (Qo'pol mo'yqlam)** Kontur bo'ylab sudrab, obyektning chetini buzib ko'rsatish (36-rasm).



36-rasm. Грубая кисть

Yugoridagi barcha amallar CorelDRAW dasturi uskunalar panelining quyidagi rasmidagi (shaklarni o'zgartirish, tahrirlash) uskunlardan foydalanib bajarildi (37-rasm).




37-rasm. Shaklni o'zgartirish uskunalari



Mashtab (Masshtab) Obyektlrni kattalashtirish yoki kichraytirib ko'rish.


Chizish uskunalari

Freehand Smoothing ko'rsatkichlari 0 dan to 100 gacha bo'lgan sonlarda berilgan bo'lib, u hamma vaqt 100 da turadi. undan foydalanish uchun ko'rsatkichni bosib turib o'ng yoki chap tomonga tortamiz. Shundan keyin atributlar panelining

ostida sonlarni ko'rsatuvchi shkala paydo bo'ladi. Bu instrument bilan to'g'ri chiziqlar sal boshqacharoq chiziladi. Buning uchun kursorni boshlang'ich nuqtada bosib turib **CTRL** klavishini bosamiz va tutib turib keyingi nuqtani belgilab kursorni bosamiz. Shu usul bilan to'g'ri chiziqlarni chizishimiz mumkin.

Rasm chizish jarayonida to'g'ri chiziqlarni chizish rejimidan, erkin shakl va chiziqlar chizish rejimiga o'tish mumkin.


Bezier (Beze) instrumenti

Bezier instrumenti rasm chizish jarayonida qiya chiziqlar ustidan nazorat o'rnatib ishlashda juda qulay hisoblanadi.

Sichqoncha tugmasi bilan har safar nuqta qo'yib keyingi bog'lam bilan tutashtiramiz. Shu yo'l bilan biz keraklicha nuqtalarni ixtiyoriy tutashtirishimiz mumkin.

Bu instrumentlardan tashqari CorelDrawda **Artistic Media** (badiiy vositalar) instrumenti bo'lib, bu instrument yordamida ko'plab obyektlarni sanoqsiz bog'lamlar bilan yaratish mumkin.

Bu instrumentda kalligrafik pero, zagotovkalar, mo'yqalam, sepuvchi asbob va shtrixlar ro'yxati mayjud.



81-rasm. Shakllar va konturlar. Ularni tahrirlash

CorelDraw dasturida shriftlar bilan ishlash va ularning turlari

CorelDRAW dasturida matn yaratish uchun **Text** maxsus uskunasi mayjud. Bu asbob ikki rejimda: satrli va abzasli matn sifatida qo'llaniladi.

Belgilanganda satrli matn oddiy vektorli obyektga o'xshaydi. Abzasli matn belgilanganda boshqacharoq ko'rinishga ega boladi. Abzasli matnni formatlash imkoniyatlari ko'proq bo'ladi.

Matnni tahrirlash

Dasturda matnni tahrirlash juda qulay tashkil etilgan bo'lib, xatto **Текст** (**Text**) uskunasi belgilanmagan bo'lib, belgilash uskunasi belgilangan bo'lsa ham, ikki marta matn obyekti ustida sichqoncha chap tugmasining bosilishi uni tahrirlash rejimiga o'tkazadi.

Ayrim hollarda **Текст** (**Text**) menyusining Pe'dakatiruvashni tekem buyrug'i bilan ochiladigan oynada ham matnni tahrirlash qulay.

Simvollarini kiritish va o'chirishdan tashqari CorelDRAW dasturi matnni formatlash uchun keng imkoniyatlar, ya'ni matn ko'rinishini, harflar va satrlar joylashishini o'zgartirish kabi amallarni bajarish imkoniyatini beradi.

Buning uchun menyuning **Форматироование символов** (**Character Formatting**) va **Форматироование абзаца** (**Paragraph Formatting**) buyruqlari bilan ochiluvchi qo'shimcha oynalaridan foydalanish mumkin.

Форматироование символов (**Character Formatting**) qo'shimcha oynasida matnnning asosiy parametrlari joylashgan: matn shrifti turi, uning stili, o'lchami va joylashishi.

Shuningdek bu oynada matn shriftining qo'shimcha bezalishini o'rnatish mumkin: **Накречкивание**, **Зачеркивание**, **Надчеркивание**, **Верхний регистр**, **Наположение**.

Форматироование абзаца qo'shimcha oynasi abzas parametrlarini sozlash uchun ishlataladi. Bu oynada simvollar, so'zlar, satrlar, abzaslar orasidagi, masofa va oraliqlarni o'matish mumkin. Bu oynaning ayrim bo'limlarini satrli matn uchun qo'llab bo'lmaydi.

Текста **Габуятини** buyrug'i bilan ochiladigan oynada tabulyasiya tipi va pozitsiyalarini sozlash mumkin.

Текста **Стандарты** buyrug'i yordamida ochiladigan **Параметры стилей** oynasidan foydalanib matnni bir nechta ustunlarga ajratish mumkin.

Текста **Маркеры** va **Текста** **Буквицы** buyruqlari yordamida ochiladigan muloqot oynalarida mos ravishda markerlangan ro'yxatlar va bukvilar (abzas boshidagi bir nechta satr balandligidagi katta xarf) yaratish imkoniyati bo'ladi. Ayrim

formatlash amallarini qo'lida, uskunalar panelidagi **Форма** (**Shape**) uskunasini ishlatalib ham bajarsa bo'ladi. Bu uskuna bilan matnlri obyektning belgilanishi natijasida matndagi har bir harf yonida kichik oq kvadratcha va matn tagida maxsus markerlaming paydo bo'lishiga olib keladi.

Simvollar yonidagi oq kvadratchalarni belgilab, alohida harflarni siljitchish yoki burish mumkin. Bu harflarni dastlabki holatiga **Текста** **Выравнивание** тэкем buyrug'i yordamida qaytarish mumkin. Abzasning o'ng pastki tomonida joylashgan markerni tortib, simvollar va so'zlar orasidagi masofani o'zgartirish mumkin. Bunda **Shift** tugmasi bosilib turilsa, faqat so'zlar orasidagi masofa, agar **Ctrl** tugmasi bosilib turilsa, simvollar orasidagi masofa o'zgaradi. CorelDRAWda matn nafaqat satrlarda, balki ixtiyorli egri chiziq bo'ylab, va xatto berkitilgan figuralar ichida ham joylashishi mumkin.

Egri chiziq bo'ylab matn

Ixtiyorli egri chiziq bo'ylab joylashadigan matnni ikki yo'l bilan yaratish mumkin.

Birinchi yo'l-bu avval matnni yozib, keyin chiziqni chizib, **Текст** ► **Текст** bo'ldi yutu buyrug'idan foydalanish.

Ikkinchi yo'l chiziqni chizib, asboblar panelidan **Текст** asbobini tanlab, uni chiziq yaqiniga olib borish bilan. Bunda sichqoncha ko'rsatkichi egri chiziqli yozuv ko'rinishga kelgandan keyin uning chap tugmasi bosiladi va matn kiritiladi va bu matn chiziq bo'ylab joylashadi (65-rasm). Kiritilgan matnni tahrirlash (simvollar kiritish va o'chirish) va chiziq bo'ylab siljitchish mumkin. Abzasli matnni chiziq bo'ylab joylashtirib bo'lmaydi.

Matn ancha murakkab shakldagi figura ichini to'ldirishi mumkin. Vektorli obyekt ichini uning shakliga mos ravishda matn bilan to'ldirish uchun, asboblar panelidan **Текст** asbobini tanlab uni vektorli obyekt yaqiniga olib borish va sichqoncha ko'rsatkichi yozuv harflari ko'rinishga kelganda chap tugmani bosish va matnni kiritish kerak bo'ladi. Bunda kiritilgan matn vektorli obyekt shakliga mos joylashadi.

Shriftini tanib olish

CorelDRAW da yangi paydo bo'lgan imkoniyatlardan biri bu rasrli tasvirni (**канерланган** yoki ixtiyorli boshqa) tahlil qilib, unda yozilgan matnnning shrift turini aniqlashdir. Bu imkoniyatdan foydalanish uchun CorelDRAW hujjatiga tasvir joylashtiriladi va **Текста** **WhatTheFont** buyrug'i tanlanadi. Bunda sichqoncha ko'rsatkichi nishon ko'rinishiga o'zgaradi va tahlil qilinishi kerak bo'lgan soha

sichqoncha bilan belgilanadi. Belgilangan sohada sichqoncha chap tugmasi bosiladi va brauzer oynasida <http://www.mvfonts.com/> internet sahifasi ochiladi. Bu sahifada *Houick* tugmasi bosilib, ochiladigan oynada tahlil natijalari ko'rindi.

Matnlar bilan turli effektlarni qo'llab shrift kompozitsiyalarini yaratishimiz va dizayn soxasida qo'llashimiz mumkin. Bu amaliyotlarni amaliy darslarda CorelDraw dasturidagi barcha funksiyalar va ularning vazifalarini mukammal o'rgangandan so'ng bajarishni tavsiya qilamiz.



82-rasm. Shrift kompozitsiyalari

CorelDraw dasturida ranglar bilan ishlash

Ranglar palitrasи (Color Palette) dastur oynasining o'ng tomonida joylashgan bo'ladi. Bu palitra belgilangan ob'yektni palitrada mavjud ranglarga sichqoncha chap tugmasini bosib bo'yash, sichqoncha o'ng tugmasi yordamida esa obyekt tashqi cheqara chizig'i rangini tanlash imkoniyatini beradi. Agarda hech bir obyekt belgilanmay ranglar palitrasidagi rang tanlansa, dastur bu holni yangi grafik ko'rinish yaratishga urinish deb qabul qiladi va oyna ochiladi.


Palitra sarlavhasidagi tugma yordamida palitrani qo'llash va o'zgartirish imkoniyatini beruvchi menyu ochiladi. Bu menyu quyidagi bo'limlardan iborat:

Установить цвет обрата (Set Outline Color) — belgilangan obyekt tashqi chiziqi rangini ayni vaqtida palitrada aktiv bo'lgan rangga o'tkazadi.


Установить цвет заливки (Set Fill Color) — belgilangan obyekt bo'yalish rangini ayni vaqtida palitrada aktiv bo'lgan rangga o'tkazadi.

Палитра (Palette) — yangi ranglar palitrasini yaratish, boshqa palitrani ochish, ayni vaqtida ochiq palitrani saqlash va yopish imkoniyatini beruvchi qo'shimcha menyuni ochadi. Bir vaqtning o'zida bir nechta ranglar palitrasini ochish ham mumkin. Bunda bu palitralar yonma-yon joylashadi.

CorelDraw dasturida ranglar son sanoqsiz bo'lib har bir rang RGB yoki SMYK da maxsus kodlar yordamida shakllanadi. Dasturda turli dizayn va effectlarni qo'llab takrorlanmas ranglar palitrasini yaratish mumkin.



83-rasm. RGB va CMYK Rang turlari



84-rasm. Ranglar palitrası



84-rasm. Ranglar bilan kompoztsiya

CorelDraw dasturida maxus effektlar yaratish

CorelDraw amaliy dasturida obyektlar bilan ishlashda bir qancha effektlarni qo'llash mumkin. Bular quyidagi lardan iborat:

1. Egish effekti.
2. Deformatsiya effekti

3. Perspektiva effekti
4. Ekstruysiya effekti
5. Qadam- baqadam o'tish effekti
6. Kontur (oreol) effekti
7. Soya effekti
8. Linza effekti
9. SHaffoflik effekti

Egish effekti bilan ishlash

Egish effekti obyekt shaklini mustaqil ravishda egishga yordam beradi. Bunday effektni obyektlar guruhiga qo'llashdan oldin shu obyektlarni guruhlash lozim.

Egish effekti **Interactive Envelope** (egishni interaktiv tuzish) instrumenti yordamida amalgalashiriladi. Bu instrument grafika panelidagi instrumentlar to'plamida joylashgan. **Interactive Envelope** (egishni interaktiv tuzish) instrumenti tugmasi panelda chapdan to'rtinchib bo'lib joylashgan. Agar obyektni belgilab olib shu tugmani bossak obyekt atrofida avtomatik ravishda 8 bog'lambidan iborat bo'lgan gabarit to'g'ri burchaklik paydo bo'ladi. Xuddi boshqa bog'lamlar kabi ular ham markerlar bilan ta'minlangan. Markerni bosib turib, uni sichqonchabilan sursak obyektni kerakli shaklni bera olamiz.



84-rasm. Shrift kompozitsiyasi

Obyektga kerakli shaklni berishdan oldin tahrirlash tartibi tugmalaridan birini tanlash lozim. Bu tartib obyekt shaklini tahrirlash vositalarini belgilab beradi. Tahrirlash tartibi tugmlari atributlar panelining o'rta side joylashgan. Tartib nomlari bujaradigan vazifasiga qarab tanlangan bo'lib, ular chapdan o'ngga qarab quyidagi tartibda va nomda joylashgan:

Straight Line (to'g'ri chiziq), **Single Arc** (yoy), **Double Arc**(to'lqin), **Uncontrolled mode** (mustaqil).

Obyektga egish effektini qo'llash quyidagi ketma-ketlikda amalgalashiriladi:

- Obyekt yoki obyektlar guruhini belgilab oling va **Interactive Envelope** (egishni interaktiv tuzish) instrumentlar tugmasini bosing. Obyekt atrofida avtomatik ravishda egish effektini beruvchi gabarit to'g'ri burchaklik paydo bo'ladi.


- Atributlar panelidagi egish tartibini tanlash tugmasini bosamiz.
- **Interactive Envelope** (egishni interaktiv tuzish) instrumentini gabarit to'g'ri burchaklik bog'lamlarini ajratish va almashtirish uchun foydalamanamiz.

Deformatsiya effekti

Interactive Distortion (interaktiv deformatsiya) instrumenti tugmasi grafika panelidagi interaktiv effektlar panelining qo'shimcha instrumentlar panelida joylashgan. Tugmadagi belgi g'ijimlangan qog'ozga o'xshaydi. Deformatsiyaning uchta turi mavjud:

1. **Push and Pull** (tort-itar)
2. **Zipper** (zigzag)
3. **Twister** (aylantirish)

85-rasmda har uchta deformatsiyaning aylana obyektga ta'siri tasvirlangan. Deformatsiya tipining soni va turli tumanligi cheksiz bo'lib, uning natijasi deformatsiya instrumentining tipi, boshqaruvchi markerga, kursorni tortish yo'nalishiga, shuningdek atributlar panelining parametrlarining tuzilishiga bog'tiq.



85-rasm. Tort-itar, zigzag, aylantirish

Perspektiva effekti

Perspektiva effekti tasvirga ko'rish chizig'i yo'nalishini hisobga olgan holda chuqurlik va hajm taasurotini beradi. Perspektiva effektini qo'llash orgali obyekt sahna foni chuqurligida kichraygandek tuyuladi.


Perspektiva effektini bitta obyektga va obyektlar guruhi qo'llash mumkin. U bir vaqtning o'zida bir nechta obyektga qo'llanishi mumkin emas. Lekin uni bir obyektdan boshqa obyektga nusha olib o'tkazish mumkin.

- Perspektiva effektini qo'llash uchun oldin obyekt yoki obyektlar guruhini belgilab olish lozim. Keyin **Effects>Add Perspektive** (effektlar/perspektivani qo'llash) komandasini tanlanadi. Shundan keyin obyekt yoki obyektlar guruhni burchaklarida bog'lamlari bilan to'g'ri burchakli punktir ramka bilan ajraladi. Ramka ichi esa vertikal va gorizonttal holatdagi yo'naltiruvchi chiziqlar bilan qoplanadi.


Obyektga perspektiva effektini berish uchun esa avtomatik ravishda paydo bo'luvchi **Shape** (shakl) instrumentidan foydalanamiz. Buning uchun esa bu instrument yordamida obyekt burchaklaridagi bog'lamlar dan birini ushlab kerakli masofaga tortamiz.

Bog'lamni surish yo'nalishi obyektga qaysi turdag'i (bir yoki ikki nuqtali) perspektiva qo'llanilishiga ta'sir qiladi.


Agar CTRL klavishini ushlab turib bog'lamlardan birini vertikal yoki gorizontal bo'yicha sursak bir nuqtali perspektiva effekti hosilbo'tadi. Bog'lamni tortish jarayonida biz CTRL klavishini ushlab turmasak ikki nuqtali perspektiva effektini hosil qilgan bo'lamiz.



86-rasm. Naqsh kompozitsiysi



87-rasm. Naqsh kompozitsiysi perspektivasi loyihasi



88-rasm. Naqsh kompozitsiyasi perspektivasi

Ekstruziya effekti

Ekstruziya effekti yalpoq ikki o'lchamli obyektlarga hajm ya'ni uchinchi o'lcham illyuziyasini beradi. Ekstruziya effektini qo'llashda Corel DRAW obyektning ko'rinnas qirralarini quradi. Proyeksiyalarni berilgan tutashuv nuqtali perspektivaga aylantiradi. Ekstruziya effekti Interactive Extrude (xajmni interaktiv qurish) instrumenti yordamida yaratiladi. Bu instrument interaktiv instrumentlar panelida instrumenti yordamida yaratiladi. Bu instrument interaktiv instrumentlar panelida yarashgan, shuningdek atributlar panelining turli tuman elementlaridan foydalangan holda hosi lqilinadi.

Qadam-baqadam o'tish effekti


Qadam-baqadam o'tish effekti turli-tuman variantlarda qurilishi mumkin, lekin ularning hammasi qadam-baqadam o'tishning boshi va oxirini belgilovchi ikkita obyektni qurishdan boshlanadi. Bu ikkita obyekt juda oddiy (masalan, to'g'ri obyektlardan iborat bo'lishi mumkin).

Qadam-baqadam o'tish effekti perspektiva illyuziyasini hosilqilishi uchun yoki neon reklamasining tashqi ko'rinishini imitatsiyalash uchun ishlataladi.

Qadam-baqadam o'tish effektini qo'llash natijasida hosilqilingan grafik obyektlar o'tish guruhi deyiladi. Bunda guruhi uch qismidan iborat: ikkita boshqaruvchi obyekt (boshi va oxiri) va oraliqdagi obyektlar guruhi.

O'tish guruhidagi barcha obyektlar bir-biri bilan dinamik ravishda bog'langan. Buning ma'nosi shundan iboratki, agar guruhdagi boshqaruvchi obyektni olib hujjat varag'ining boshqa joiga o'tkazsa qolgan obyektlar ham avtomatik ravishda birinchi obyektning izidan boradi.

Qadam-baqadam o'tish effektini **Interactive Blend** (kadam-baqadam o'tishni interaktiv tuzish) instrumenti yordamida qo'llaniladi. Neon reklamasi effekti esa ikkita turli obyektlarning chiziqlari yoki konturlari orasida hosilqilinadi. Bu effekt orqali turli reklamalarni bezashda foydalananiladi.




89-rasm. Qadam-baqadam

Kontur effekti

Interactive Contour (konturni interaktiv tuzish) instrumenti belgilangan obyektga uning kontsentrik dublikatlarini tuzib beradi. Bu dublikatlar obyektning ichiga yoki tashqi tomoniga qo'yilishi mumkin. Obyekti originalining rangi qanaqa bo'lsa uning dublikatining rangi ham shunaqa bo'ladi. Dublikat soni va ular orasidagi masofani interaktiv rejimda yoki **Contour Steps** (oreol qadami) va **Contour Offset** (oreol intervali) nomli tugmalar orqali tuzish mumkin. Atributlar panelida esa uchta kontur tiplaridan biri tanlanadi:

Bular **To Center** (markazga), **Inside** (ichkariga) va **Outside** (tashqariga) deb ataladi.



90-rasm. Qadam-baqadam

Soya effekti

Soya effekti interaktiv instrumentlar panelidagi **Interactive Drop Shadow** (soyani interaktiv tuzish) instrumenti yordamida beriladi. Soya parametrlarini tuzish uchun atributlar panelidagi boshqaruv elementlaridan foydalaniladi. Soya effekti perspektiva effekti bilan birgalikda berilishi mumkin.

Linza effekti

Lens (linza) tutashuvchi oynasini chaqirish uchun **Effects/ Lens** (Effektlar/ Linza) menyusidagi komandadan yoki **ALT+F3** klavishidan foydalanishingiz mumkin. Linza menyusidagi komandadan yoki **ALT+F3** klavishidan foydalanishingiz mumkin. Linza quyidagi turlarga ega:

Brighten (yorqinlik), **Color Add** (ranglarni tuzish), **Color Limit** (rangli filtr), **Sustom Color Map** (maxsus palitra), **Fisheue** (baliq ko'zi), **Heat Map** (nurlanish spektri), **Invert** (murojaat), **Magnify** (kattalashitirish), **Tinted Grayscale** (bir hil rang tusi), **Transparensy** (shaffoflik) va **Wireframe** (rangli kontur).

Shaffoflik effekti

Interactive Transparency (shaffoflikni interaktiv tuzish) instrumenti tugmasi grafika panelidagi interaktiv instrumentlar panelida joylashgan. Bu instrument grafik obyektga shaffoflik effektini berib, yarimtonli rastrli tasvir hosilqiladi. Yarimtonli rastrli maskada oqdan to qoragacha bo'lgan diapazonda tekis taqsimlangan kулrangingning 256 ta gradatsiyasini hosil qilish mumkin.

CorelDraw dasturida qatlamlar (sloy) bilan ishlash

Har safar biz rasmga biron bir obyektni qo'shsak, u oldini planda joylashadi. **Arrange / Order** (montaj/tartib) komandasasi obyektlarni tanlab, aralashtirib, uni hujjatning turli qismiga joylashtirishi mumkin.

Order (tartib) komandasini tanlaganimizdan keyin obyektlarning joylashish tartibini o'zgartirib beruvchi 7 ta turli-tuman komandalardan iborat bo'lgan menu ochiladi.

- **To Front** (oldingi planga). Bu komanda yordamida ajratilgan obyekt va obyektlarni rasmdagi barcha obyektlarning ustiga joylashtirib beradi. Bu komandanadan rasmdagi obyektlarning tartibini o'zgartirish uchun foydalaniladi.
- **To Back** (orqa planga). Komanda ajratilgan obyekt yoki obyektlarni rasmdagi barcha obyektlarning ostiga joylashtirib beradi.
- **Forward One** (oldinga) komanda ajratilgan obyekt yoki obyektlarni bir qadam orqaga joylashtirib beradi.
- **Back One** (orqaga) komanda ajratilgan obyekt yoki obyektlarni bir qadam orqaga joylashtirib beradi.
- **In Front of** (Obektning oldiga) komanda ajratilgan obyekt yoki obyektlarni rasminning berilgan obyekti oldiga joylashtirib beradi.
- **Behind** (obyektdan keyin). Komanda ajratilgan obyekt yoki obyektlarni berilgan obyektning orqasiga joylashtirib beradi.
- **Reverse Order** (tartibni qaram-qarshi tomonga o'zgartirish). Komanda ikki yoki undan ko'p obyektlarning tartibini qarama-qarshi tomonga o'zgartirib beradi.

Order (tartib) podmenyusi va **Arrange** (monta) menyusidan tashqari obyektlarni tartibga keltirish uchun **Object** (obyekt) kontekst menyusi va atributlar panelidan foydalanish mumkin. Bundan tashqari klavishlarning quyidagicha kombinatsiyalaridan foydalanish mumkin:

- SHIFT+PGUP - oldingi planga
- SHIFT+PGDN - orqa planga
- CTRL+PGUP - oldinga
- CTRL+PGDN - orqaga


Lekin obyektlarning tartibini turli qatlamlarda turgani holda o'zgartirishi mumkin emas.

Obyektlar dispetcheri


Obyektlar dispetcheri hujjatning barcha obyektlari, qatlamlari va varaglarini daraxtsimon tarkibini aks ettiradi. Object Manager (obektlar dispetcheri) nomli tutashuvchi oynasi esa hujjatning harbir varag'idagi obyektlar va qatlamlarning tarkibini namoyish etadi. Rasmning har bir obyekti kichkina belgi bilan belgilangan bo'lib, u bilan birga obyektning rang xususiyatlari va boshqa belgilari yozib ko'rsatiladi.

Obyektlar dispetcheri oynasi grafik hujjatning bo'lak qatlamlari haqida ham ma'lumotlar beradi. Obyektlar va qatlamlar bilan ishlashni osonlashtiradi.

Obyektlar dispetcheri **Window/Dockers/Object Manager** (oyna/tutashuvchi oyna/obyektlar dispetcheri) komandasasi bilan chaqiriladi.




91-rasm. Qatlamlar bilan ishlash




92-rasm. Ko'p qatlamlari loyiha

CorelDraw dasturida obyektlarni import va eksport qilish amallari

CorelDraw dasturida import va eksport funksiyalari mayjud bo'lib, o'z nomi bilan import tashqi fayldan CorelDraw dastuiga obyekt olib kirish, eksport dasturdan tashqariga tayyor maxsulotni olib chiqish (Nashrga tayyorlash).



93-rasm. Import qilish jarayoni




94-rasm. Eksport qilish jarayoni




95-rasm. Eksport qilingan tayyor loyiha

Turli zamonaviy infografiklar yaratish


Infografika – ma'lumotlarni vizuallashtirish taqdim etilayotgan axborotni jozibali va yanada tushinarli ravishda nomoyon etish ikonyatini yaratadi. Shuning uchun infografika ma'lumotlarini turli joylarda uchratish mumkin: web-sayt, ijtimoiy tarmoq, reklama va taqdimotlarda. Ba'zan, u oddiy rasmlar, ba'zan esa izometriyalarda nomoyon bo'ladi. Ammo infografika va oddiy illyustratsiyalar o'rtaqidagi asosiy farq – bu, kichik matn bloklari bilan rasmlarning kombinatsiyasida. Ma'lumotlarni samarali taqdim etish uchun juda kamdan-kam hollarda rasmlarning o'zi kifoya qiladi. Ba'zan fotosurailar bo'laklari bilan infografikani qo'llashga to'g'ri keladi. Bu maqsadga erishishda CorelDraw dasturi yordam beradi. Agar sizga faqat rasm va matn kerak bo'lsa, unda Illustrator dasturlardan foydalanish qulay hisoblanadi. Xususan, bu yerda rasmlar va yozuvlarni tahrir etish hamda rang berishni samarali bajarish mumkin.




96-rasm. Infografika tayyorlash jarayoni




96-rasm. Chirchiq davlat pedagogika universiteti infografikasi



97-rasm. San'atshunoslik fakultetida mavjud ta'lim yo'nalishlari infografikada



98-rasm. Tasviriy san'at kafedrasida tashkil etilgan to'garaklar infografikada




99-rasm. O'sish suratlari infografikada


Vizitka, buklet, turli o'lchamdag'i reklama bannerlarini yaratish

Vizitka, buklet va reklama bannerlari bugungi kunda bozor iqtisodiyotining afjalmas qismiga aylandi, nafaqat savdo sotiqda barcha sohalarda, xususan ta'lim sohasiga ham keng tadbiq etib kelinmoqda. Mulkchilikning erkinlashtirilishi, xususiy mulkning, tadbirkorlikning kengayshi, xususiy ta'lim muassasalarining ko'payishi, umuman olgnda rivojlanishda raqobat va brendlarning shakllanishi bunga ehtiyojlarini oshirib bormoqda. Ehtiyoj borki grafik dasturlar, dizayn sohasi rivoj topib turli rakurslarda kengayib yanada o'zini jozibor namoyon etmoqda. Dizaynerlikni yaxshi egallash va professional bo'lish uchun texnikani, grafik dasturlarni bilishni o'zi yetarli emas. Yaxshi mutaxassis bo'lish uchun albatta Qalamtasvir, Rngtasvir, Rangshunoslik, Perspektiva va Kompozitiya kabi tasviriy san'at fanlarini ham chucher o'rganish zarur. Shundagina ko'zlangan maqsadga erishish va muvaffaqiyat qozonish mumkin.


Barcha murakkab va professional vizitka, buklet yoki reklama baneri loyihasini CorelDraw dasturida yuqotida o'tilgan mavzular asosida bemalol bajarish mumkin. Loyerhani betakrorligi va muvaffaqiyati sizning ijodkorligingiz va mahoratingizga bog'liq.




99-rasm. Vizitka dizayn loyihasi




100-rasm. Reklama dizayn loyihasi



102-rasm. Sertifikat dizayn loyihasi



101-rasm. Kitob muqovasi dizayn loyihasi



103-rasm. Katta hajmdagi dars jadvali loyihasi

1. Kompyuter grafikasi qanday fan?
2. Kompyuter grafikasining qanday turlari mavjud?
3. Rastr nima?
4. Fraktal grafikasi nimaga asoslangan?
5. Fraktal geometriyasi asoschisi kim?
6. Vektorli grafika bugungi kunda qaysi sohalarda keng qo'lanilmoqda?
7. CorelDRAW dasturi qanday kompyuter grafikasiga turiga kiradi?
8. CorelDRAW dasturi Bosh menyusi qanday vazifani bajaradi?
9. CorelDRAW dasturi Standart paneli qanday vazifani bajaradi?
10. CorelDRAW dasturi Xususiyatlar paneli qanday vazifani bajaradi?
11. CorelDRAW dasturi Asboblar paneli qanday vazifani bajaradi?
12. CorelDRAW dasturi Ranglar palitrasи qanday vazifani bajaradi?
13. CorelDRAW dasturi menyulari?
14. CorelDRAW dasturi Файл (File) menyusida qanday buyruqlar bor?
15. CorelDRAW dasturi Вид (View) menyusida qanday buyruqlar bor?
16. CorelDRAW dasturi Упорядочить (Arrange) menyusida qanday buyruqlar bor?
17. Эффекты (Effects) menyusi va uning qanday buyruqlari bor?
18. Растровые изображения menyusi va uning qanday buyruqlari bor?
19. Текст menyusi va uning qanday buyruqlari bor?
20. Таблица (Table) menyusi va uning qanday buyruqlari bor?
21. Инструменты (Tools) menyusi va uning qanday buyruqlari bor?
22. Окно (Window) menyusi va uning qanday buyruqlari bor?
23. Abzasli va satrli matn nima?
24. TIF yoki TIFF, BMP, GIF va JPEG grafik formatining izohlab bering?
25. Изменение формы guruhi asboblari yordamida qanday amallar bajariladi?
26. Обрезка (Crop) guruhi asboblari yordamida qanday amallar bajariladi?
27. Масштаб (Zoom) asboblar guruhi yordamida qanday amallar bajariladi?
28. Кривая (Curve) asboblar guruhi yordamida qanday amallar bajariladi?
29. Интеллектуальная заливка (Smart) asboblar guruhi yordamida qanday amallar bajariladi?
30. Прямоугольник (Rectangle) asboblar guruhi yordamida qanday amallar bajariladi?
31. Группа инструментов Ellipse (Эллипс) yordamida qanday amallar bajariladi?
32. Объект (Object) asboblar guruhi yordamida qanday amallar bajariladi?
33. Правильная фигура (Perfect Shape) guruhi asboblari yordamida qanday amallar bajariladi?

1. Kompyuter grafikasi turlari?
 - *A) rasirli grafika, vektorli grafika, fraktal grafika;
 - B) rasirli grafika;
 - C) vektorli grafika;
 - D) fraktal grafika;
2. Rasm nimadan iborat?
 - *A) grafikli oddiy elementlardan;
 - B) obyektlardan;
 - C) chiziqlardan;
 - D) egri chiziqlardan;
3. Piksel nima?
 - *A) rasmning elementar obyekti;
 - B) ekranning yorug' nuqtasi;
 - C) nishonlar (значок) va yortilqlar;
 - D) elementar (oddiy) obyekt;
4. Quyidagi vektorli grafikada ishlataluvchi minimal ob'yekt xisoblanadi?
 - *A) (chiziq, to'g'ri to'rburchak, aylana va x.k.);
 - B) ekran nuqtasi (pixsel);
 - C) ranglar to'plami (palitra);
 - D) belgi (simvol);
5. CorelDRAW muxarririda fayllarning kengaytmasi?
 - A) pdd;
 - B) pdi;
 - *C) cdr;
 - C) bmp;
6. RGB ranglar modelida komponentalar sifatida asosan quyidagi ranglar ishlataladi...
 - *A) qizil, yashil, ko'k;
 - D) xavo rang, yashil rang, sariq;
 - E) kizil, xavo rang, sariq;
 - F) xavo rang, ko'k, sariq;
7. Qaysi grafik muxarrirlardan biri rastrli bo'lib xisoblanadi?
 - A) Adobe Illustrator;

- B) *Paint*;
- C) *Corel Draw*;
- *D) *PtohoShop*;

8. Qaysi grafika matematik xisoblashlar asosida tasvirlarni avtomatik yaratish uchun qo'llaniladi?

- A) *rastrli grafika, vektorli grafika, fraktal grafika*;
- B) *rastrli grafika*;
- C) *vektorli grafika*;
- *D) *fraktal grafika*;

9. Qaysi grafika turli jarayonlarni modellashtirish uchun qo'llaniladi?

- A) *rastrli grafika, vektorli grafika, fraktal grafika*;
- B) *rastrli grafika*;
- C) *vektorli grafika*;
- *D) *fraktal grafika*;

10. Faylning katta o'lehami qaysi grafikaning kamchiligidir ...

- *A) *rastrli grafikaning*;
- B) *vektorli grafikaning*;
- C) *uch o'lechovli grafikaning*;
- D) *kompyuter grafikasining*;

11. Qaysi format grafiki xisoblanadi?

- A) *TIO*;
- *B) *JPEG*;
- B) *PPS*;
- C) *DOC*;

12. Odatda grafik muharrirlari uchun ishlataladi.

- *A) *chizish*
- B) *insho yozish*
- D) *hisoblash amallarini bajarish*
- E) *ma'lumotlar bazasini saqlash*

13. CorelDRAW dasturi-bu:

- A) *Dastur*
- B) *Dasturlash tili*
- C) *Yuqori darajali dasturlash tili*
- *D) *Grafik muharrir*

14. CorelDRAW dasturining asosiy texnologik prinsipi nimaga asoslangan?

- A) *matnlarga*
- *B) *grafiklarga*
- C) *hisoblashlarga*
- D) *obyektlarga*

15. CorelDraw dasturida «Asboblar paneli» nima vazifani bajaradi?

- *A) *Obyektlar yaratadi, va obyektlar bilan ishlaydi.*
- B) *Bunday panel umuman yo'q*
- C) *Faqat matn yaratadi*
- D) *To'g'ri javob yo'q*

16. CorelDraw dasturida klaviatura yordamida qaysi tugmani bosib turib bir nechta obyektni belgilash mumkin?

- A) *Ctrl*
- *B) *Shift*
- C) *Tab*
- D) *Alt*

17. CorelDraw dasturida “Свойства объекта” oynasi qanday chiqariladi?

- A) *Obyekt ustiga sichqoncha ko'rsatkichi olib borilib chap tugma bosiladi*
- B) *Menyuning «File» bo'limi orqali*
- *C) *Obyekt ustiga sichqoncha tugmasi olib borilib o'ng tugmasi bosiladi, va ochilgan kontekstli menyudan chiqqan buyruqlar ichidan “Свойства” buyrug'i tanlanadi.*

18. CorelDraw dasturi import jarayoni to'g'ri keltirilgan javob?

- *A) *Файл-Импорт... - Импорт*
- B) *Правка- Импорт... - Импорт*
- C) *Файл - Экспорт - Импорт*
- D) *Файл - Импорт... - Экспорт*

19. CorelDraw dasturi oynasi asosiy elementlari bu:

- A) *Sarlavha va menu satri*
- B) *Standart asboblar paneli*
- C) *Xususiyatlar paneli*
- D) *Ranglar palitrasи*

*E) *Barcha javoblar to'g'ri*

20. Menyudagi Edit bo'limi asosan amallarini bajarish mo'ljallangan.

- A) Birlashtirish
- B) Ko'rish
- C) Boshqarish
- *D) Tahrirlash

21. To'rtburchak asbobi yordamida to'rtburchak chizishda *Shift* tugmasi bosib turilsa qanday obyekt chizish mumkin?

- A) Kvadrat
- B) Uchlari yo'q kvadrat
- *C) To'g'ri to'rtburchak o'rtadan boshlab chiziladi
- D) Ellips

22. To'rtburchak asbobi yordamida to'rtburchak chizishda *Ctrl* tugmasi bosib turilsa qanday obyekt chizish mumkin?

- *A) Kvadrat
- B) Uchlari yo'q kvadrat
- C) To'g'rito'rtburchak o'rtadan boshlab chiziladi
- D) Ellips

23. To'rtburchak burchaklarini aylanaga aylantirish uchun:

- *A) Shape (Форма) -asbobi yordamida to'rtburchak uchidan ushlab tortiladi.
- B) Bu amalni bajarib bo'lmaydi
- C) Ellipse (Эллипс) -asbobi yordamida to'rtburchak uchidan ushlab tortiladi.
- D) Rectangle (Прямоугольник) -asbobi yordamida to'rtburchak uchidan ushlab tortiladi.

24. Ellips obyekti uchun xususiyatlar panelida qanday tugmalar paydo bo'ladi?

- A) Arc (Дуга)
- *B) Ellipse (Эллипс) Rю(Сектор) Arc (Дуга)
- C) Ellipse (Эллипс)
- D) Arc (Дуга), Ellipse (Эллипс)

25. Qaysi asbob yordamida ko'rburchaklar chizish mumkin.

- A) Shape (Форма)
- *B) Polygon (Многоугольник)
- C) Perfect shape (Стандартные фигуры)
- D) Elpse(Эллипс)

26. Standart figuralar chizish asbobini toping

- A) Graph Paper (Диаграммная сетка)
- *B) Perfect Shapes (Стандартные фигуры)
- C) Polygon (Многоугольник)

E) Ellipse (Эллипс)

27. Vektorli tasvir bu -

- *A) Bir xil o'lchamdagи turli xil chiziqlardan tashkil topgan tasvir.
- B) Tenglamalar yordamida xosil qilinadigan tasvir.
- C) Nuqtalardan tashkil topgan tasvir.
- D) To'g'ri javob yo'q

28. Xotirada ko'p joy olish qaysi grafikaning kamchiligi hisoblanadi?

- A) Fraktal
- B) Vektorli
- *C) Rastrli
- D) Rastrli va Fraktal

29. Ranglar palitrasining vazifasi nima?

- *A) Obyektlar va ular chiziqlarini bo'yash
- B) Hujjat sahifasi rangini o'zgartirish
- C) Tasvirlar rangini o'zgartirish
- D) Dastur oynasi rangini o'zgartirish

30. Hujatni ochish, yopish, saqlash va import qilish buyruqlari qaysi menyuda joylashgan?

- A) View (Вид)
- B) Edit (Правка)
- *C) File (Файл)
- D) Text (Текст)

GLOSSARY

Tushunchalar	Tushunchalar mazmuni
ALGORITM ALGORITHM АЛГОРИТМ	<p>Tushunchalar mazmuni</p> <p>1. <i>Vazifani bajarishga qaratilgan aniq belgilangan qoidalaming tartiblangan chekli to'plami.</i></p> <p>2. <i>Dastlabki ma'umotlarni oxirgi natijaga o'tkazuvchi hisoblash jarayoni orgali masala yechimini aniq ko'satuvchi amallar mazmuni va ketma-ketligi. Algoritm tavsifnomalariga quyidagilar kiradi:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> - berilgan dastlabki ma'umotlar bilan natijaning bir turliligi; - jarayonni inson yoki hisoblash mashinasi tomonidan bajarilishi mumkin bo'lgan ayrim amallarning chekli soniga bo'lish mumkinligi; - <i>ko'p sinfga oid masalalarga mos ko'p dastlabki ma'umotlar uchun natija olish mumkinligi. Algoritm atamasi o'rtasida yashab ijod etgan buyuk o'zbek matematigi Al-Xorazmiy nomidan kelib chiqqan. U o'zi kashf etgan o'nli sanoq tizimida IX asrning 825 yildayoq to'rt arifmetika amallarini bajarish qoidalari bergan. Arifmetika amallarini bajarish jarayoni esa alxorazm deb atalgan. Bu atama 1747 yildan boshlab algorismus, 1950 yilga kelib algorifm deb ham ataldi. Kompyuterlar paydo bo'ishi bilan algoritm atamasi hozirgi ma'nosi bilan axborot texnologiyalari sohasida eng asosiy atamalardan biri bo'lib goldi.</i>
ANIMASIYA ANIMATION АНИМАЦИЯ	<p><i>Bir necha tasvir yoki kadrlarni ko'rsatish orqali yaratiladigan harakat taqlidi. Kompyuterlardagi animatsiya ko'p tashuvchili taqdimatlarning eng asosiy tarkibiy qismlaridandir. Kompyuter monitorida ko'rish mumkin bo'lgan animatsiyalarni yaratish imkonini beruvchi ko'plab dasturiy qo'llanmalar mavjud. Animasiya va video o'rtasidagi farqqa e'tibor bering. Video davom etuvchi harakatdan iborat bo'lib, diskret kadrlarga bo'ingan bo'lsa, animatsiya mustaqil rasmlar bilan boshlanib, ularni davom etuvchi harakat tasavvurini yaratish uchun birlashtiradi.</i></p>
ARXIV ARCHIVE АРХИВ	<p><i>Arxivator yordamida ochish mumkin bo'lgan, tarkibida bir yoki ko'p (odatda kompressiyalangan) fayllar va axborot bo'lgan fayl. Arxivlar odatda dasturiy mahsulotlar yoki rezerv nuxsalarni tarqatish uchun yaratiladi. tar, gzip formatidagi arxivlar UNIX; zip, rar, aij formatidagi arxivlar esa Windows</i></p>

AXBOROT TEKNOLOGIYASI	<i>amaliy tizimlarida ishlataladi.</i>
INFORMATION TECHNOLOGY	<p>1. <i>Axborotni to'plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish va uni tarqatish uchun foydalaniladigan jami uslublar, qurilmalar, usullar va jarayonlar (qonun).</i></p> <p>2. <i>MaTumotlarni to'plash, ularga ishlov berish, saqlash, uzatish va ulardan foydalanish jarayonida hisoblash texnikasidan foydalanish yo'llari, usullari va uslublari.</i></p> <p>3. <i>Hujjatlashtirilgan axborot, jumladan dasturiy vositalarga ishlov berishning jami uslublari, yo'llari, usullari va vositalari hamda ulardan foydalanishning belgilangan tartibi.</i></p> <p>4. <i>Inson faoliyatining turli sohalarida axborot mahsulotini ishlab chiqarishda axborot jarayonlarini amalga oshirishning jami usullari.</i></p> <p>5. <i>Insonlar tomonidan axborotni yig'ish, saqlash, ishlov berish va tarqatish uchun foydalaniladigan jami uslublar, qurilmalar va ishlab chiqarish jarayonlari.</i></p>
ИНФОРМА ЦИОННАЯ ТЕХНОЛОГИЯ	
AXBOROT MIQDORINING BIRLIGI	
UNIT OF INFORMATION QUANTITY	<p><i>Ikkilik sanoq tizimida, axborotning eng kichik birligi bo'lib bit hisoblanadi. Bir bit bu bitta "1" yoki bitta "0" degani, signal impulsi borligi yo yo'qligi bilan aks etadi. Bitlarning butun deb qaraladigan tutash ketma-ketligi bayt deb ataladi. Ko'pincha, bayt sakkiz bitga teng deb qabul qilinadi.</i></p>
ЕДИНИЦА КОЛИЧЕСТВА ИНФОРМАЦИИ	
BAYT	<p><i>Sakkiz bitga teng bo'lgan axborot miqdorining asosiy o'chov birligi. Keng ishlataladigan qisqartirishlar:</i></p> <p><i>Kilobayt (Kb) = 2^{10} bayt,</i> <i>Megabayt (Mb) = 2^{20} bayt,</i> <i>Gigabayt (Gb) = 2^{30} bayt,</i> <i>Terabayt (Tb) = 2^{40} bayt,</i> <i>Petabayt (Pb) = 2^{50} bayt,</i> <i>Ezkabayt (Eb) = 2^{60} bayt,</i> <i>Zettabayt (Zb) = 2^{70} bayt,</i> <i>Yottabayt (Yb) = 2^{80} bayt.</i></p>
BYTE	
БАЙТ	
BIT	<p><i>Axborot tizimlarida axborotni ifodalashning eng kichik birligi. Axborot miqdorining eng kichik o'chov birligi hisoblanadi. Axborot 0 va 1 sonlarining ketma-ketligi bilan ifodalanadi. Atama "binary digit" (ikkilik raqam) iborasining qisqartmasi</i></p>
BIT	

БИТ	<i>bo'lib hisoblanadi va Princeton universiteti professori Hohn W. Tukey tomonidan kiritilgan.</i>
BOD BAUD БОД	<i>Ma'umotlarni uzatish tezligining o'lchov birligi. U bir sekundda uzatilgan ramzlar soni bilan aniqlanadi. Axborotni ikkilik kodida uzatadigan kanallar uchun 1 bod 1 bit/sekundga teng. Hozirgi zamonda bu tushuncha ishlatalmaydi.</i>
VEKTOR GRAFIKASI VECTOR GRAPHICS ВЕКТОРНАЯ ГРАФИКА	<i>Chiziqlar joylashishi, uzunligi va yo'nalishini belgilovchi matematik tasviflar bo'yicha yaratiladigan rasmlar. Vektor rasmlari nuqta yoki piksellar to'plamidan bo'lmay, chiziqlar oilasidan iborat.</i>
GRAFIK INTERFEYS GRAPHIC INTERFACE ГРАФИЧЕСКИЙ ИНТЕРФЕЙС	<i>Foydalanuvchini hisoblash tizimi bilan o'zaro aloqasini tashkil qiladigan grafik muhit. Grafik interfeys g'oyasi, axborotni amaliy tizim haqida axborot taqdim etishning tabiiyligidan foydalanishdan iborat. Foydalanuvchi interfeysining asosiy tushunchalari bo'lib, oyna va piktogramma hisoblanadi. Grafik interfeysni ishlataladigan tizimda amallarni bajarish, oynalar bilan va ular ichida ishlashdan iborat.</i>
GRAFIKA GRAPHICS ГРАФИКА	<i>Predmetlarni rang ishlatmasdan, kontur chiziqlar va shtrixlar vositasida aks ettirish san'ati. Shu sababli, dastlab oq - qora chizmalarni va sxemalarni tayyorlash jarayoni kompyuter grafikasi deb nomlangan.</i>
KOMPYUTER GRAFIKASI COMPUTER GRAPHICS КОМПЬЮТЕРНАЯ ГРАФИКА	<i>Kompyuterlar yordamida tasvirlarni yaratish va ishlov berish texnologiyasi. Hozirgi kunda kompyuter grafikasi, uni yangicha tushunishda, hattoki virtual haqiqiylikni yarata oladi. Vizualizasiya tobora ko'proq ahamiyat kasb etmoqda. Kompyuter grafikasi yordamida vektorli tasvirlar va rastrlar tasvirlar yaratilmoqda.</i>
MEGAPIKSEL MEGAPIXEL МЕГАПИКСЕЛ	<i>Bir million piksel. Atama grafik qurilma, jumladan skaner, raqamli kamera yoki monitorlarning ajratma olish qobiliyatiga ko'ra ishlatiladi.</i>
PETABAYT PETABYTE ПЕТАБАЙТ	<i>2-dan 50-gacha bo'lgan (1 125 899 906 842 624 ta) kuch baytlari. Petabayt 1024 terabaytg'a teng.</i>
PIKSEL PIXEL ПИКСЕЛ	<i>Tasvir elementi. Tasvirni diskretlash (boshqa bo'linmaydigan elementlar - diskretlarga, uyalarga yoki rastr nuqtalariga bo'lish) natijasida paydo bo'ladigan eng kichik tarkibiy qism.</i>
PING	<i>(ingl. ping - "taqqillatmoq" so'zidan). Boshqa kompyuterga</i>

PING ПИНГ	<i>tarmoq orqali signalni jo'natish va javob signalini kutib olish. Odatda bu aloqani tekshirish uchun qilinadi.</i>
RASTR RASTER PACTP	<i>Tasvirlarni to'g'ri burchakli matritsaviy tasvir elementlari - piksellar shaklida taqdim qilishning raqamli vositasi. Ular tasvirlarni yoki fazoviy obyektlarni rastrlri ifodalash asosidir.</i>
RASTRLI KOMPYUTER GRAFIKASI	<i>Bunda tasvir uni hosil qiluvchi nuqtalar (piksellar, pellar) yordamida hosil qilinishi tushuniladi.</i>
PNG (PORTABLE NETWORK GRAPHICS)	<i>Tarmoq ko'chma grafikasi, PNG formati. GIF formati bilan patentlash muammolari paydo bo'gandan so'ng uning o'rniga kiritilgan yangi grafik format (ping deb o'qiladi). Format yangi bo'ganligi sababli kam sonli brauzerlar va dasturiy ta'minotni ayrim turlari tomonidan quvvatlanadi. Ranglilik chuqurligi 64 bit pikselgacha bo'gan tasvirlarni saqlash imkonini beradi, zinchash birmuncha yaxshilangan.</i>
GIF GRAPHICS INTERCHANGE FORMAT	<i>Grafik formati - tarmoqdagi eng keng tarqalgan grafik format bo'lib, u tarmoqda birinchi bo'lib paydo bo'lgan. Tarmoqdagi rangli tasvirlar va fonlarning ko'p qismi GIF formatli fayllaridir. GIF tasvimi siqishga imkon beradi, tasvirlarning rang palitrasи 256, yoki undan kamroq rangni saqlaydi. Bu siqish jarayoni sisatga ta'sir qilmaydi, ya'ni, siqishdan keyin olingan tasvir boshlangich tasvir kabi bo'adi. Agar tasvir 256 dan ortiq rangga ega bo'sa, ulaming soni chegaralangan qiyamatgacha qisqartiriladi. Shuni aytib o'ish kerakki, ranglar sonini qisqartirish bosqichida tasvir sisfati pasayishi mumkin.</i>
JPEG JOINT PHOTOGRAPHIC EXPERT GROUP	<i>Grafik formati (qisqartirilgan holda JPG) ko'p rangli tasvir fayllarini tarmoqda ishlatish uchun mo'jallangan bo'ib, foydalanish darajasi bo'yicha ikkinchi o'rinda turuvchi grafik format hisoblanadi. JPEG rang palitrasи 16 777 216 (True Color) tagacha bo'gan rangni saqlaydigan tasvirlami siqish imkoniyatini beradi. Bunday siqish tasvirning sisfati yo'qolishi (lossy compression) hisobidan sodir bo'ladi.</i>
PNG Web PORTABLE NETWORK GRAPHIC	<i>Sahifalarda tasvir va grafiklari joylashtirish uchun maxsus yaratilgan siqish formati bo'lib, Deflate siqish algoritmidan foydalanadi. Bu format GIF va JPEG formatlarining afzallik tomonlarini o'zida mujassamlashtirgan.</i>

TIF TAGGED IMAGE FILE FORMAT	Grafik format Aldus kompaniyasi tomonidan PhotoStyler dasturi uchun ishlab chiqilgan bo'lib "tegni tasvirlaydigan fayl" ma'nosini anglatadi. Bu grafik format etarlichcha murakkab bo'lsa ham uning strukturasi ma'lumotlarni yozishning qulayligi va tasvirni kengaytirishda katta imkoniyat mavjud. Tasvirning raqamli ma'lumotlarni ifodalovchi barcha axborotlar boshqa ko'pgina format fayllari singari uning boshlang'ich qismida emas, balki maxsus bloklarda, tasvir parametrlarining ichki belgilashlarida saqlanadi. Unda 45 dan ortiq turli teglar mavjud bo'lib ularning qo'llanilishi ko'pgina qo'shimcha funktsiyalarni tashkil etish imkoniyatini beradi.
BMP BIT MAP IMAGE	Grafik formati Windows operatsion tizimi uchun Microsoft firmasi tomonidan ishlab chiqarilgan. U favqulotda sodda strukturani ifodalaydi va uncha katta bo'limgan pictogramma-tasvirlarning namoyish etilishini izohlash uchun xizmat qiladigan raschlri (nuqtali) grafik formatidir. U grafik interfeyslarda keng qo'llaniladi.
WMF WINDOWS METAFILE	Windows-dasturlari uchun vektorli grafik fayllarning universal formati.
CDR CORELDRAW FILES	Vektorli grafik format bo'lib, CorelDraw grafik muharririning asosiy formati hisoblanadi.
PSD PHOTOSHOP DOCUMENT	Kuchli imkoniyatlri raschlri (nuqtali) grafik format bo'lib, Photoshop grafik muharririning asosiy formati hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. M.Aripov, B.Begalov, U.Begimqulov, M.Mamarjbov "Axborot texnologiyalari" Toshkent "Noshir"-2009.
2. Ш.Гюнтер "CorelDraw 11" Справочник Москва Бином, 2003 г.
3. Ю.С.Ковтанюк "CorelDraw 11" Санкт-Петербург, Киев 2003 г.
4. М.Бурлаков "CorelDraw 12" Москва 2004 г.
5. Бейн Стив "Эффективная работа с CorelDraw 12" Москва 2005 г.
6. <https://corel.demiart.ru/>
7. <https://Realcoding.Net/teach/corel/gl4/gl4-3.html>
8. K.M.Gulyamov, U.M.Mirzhanov, M.H.Ikromov. Vektor grafikasi asoslari, o'quv qo'llanma, "Fan" nashriyoti Toshkent 2021.

Axborot manbaalari

1. <https://www.coreldraw.com/ru/>
2. http://ziyonet.uz/ru/site/search?Find%5Bsearch_value%5D=CorelDraw&Find%5Bresource%5D=everywhere
3. <https://cspi.uz/uz>
4. www.cspi.uz
5. www.library.uz
6. www.Ziyonet.uz

QAYDLAR UCHUN

X. X. Muratov, F. M. Tadjiyeva

**KOMPYUTER GRAFIKASI VA DIZAYN
(o'quv qo'llanma)**

Muharrir:	X. Taxirov
Tehnik muharrir:	S. Melikuziva
Musahhih:	M. Yunusova
Sahifalovchi:	A.Ziyamuhamedov

Nashriyot litsenziya № 2044, 25.08.2020 й
Bichimi 60x84¹/₁₆. "Cambria" garniturası, kegli 16.
Offset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 8,5. Adadi
100 dona. Buyurtma № 1985073

Yangi chirchiq prints MCHJda chop etildi.